

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES

huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2025-yil 4-son

VOLUME 9 / ISSUE 4 / 2025

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2025.9.4

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



Crossref
Content
Registration

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 0931-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Nashr bo'yicha mas'ul:

O. Choriyev

Muharrirlar:

Y. Yarmolik, Y. Mahmudov,
E. Mustafayev, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Musahhih:

M. Tursunov

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1385.

Nashriyot litsenziyasi

№ 174625, 29.11.2023-y.

Jurnal 2025-yil 24-dekabrda
bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi: A4.
Shartli bosma tabog'i: 19,7
Adadi: 100. Buyurtma: № 210.

Bosmaxona litsenziyasi

29.11.2023 № 174626

TDYU bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 37.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

TAHRIR HAY'ATI

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, yuridik fanlar doktori, professor

MAS'UL MUHARRIR

O. Choriyev – Toshkent davlat yuridik universiteti Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

Y. Kanyazov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, yuridik fanlar nomzodi

J. Tashkulov – Fanlar akademiyasi Davlat va huquq instituti bo'lim boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

U. To'xtasheva – Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

M. Yasan – Balikesir universiteti Huquq fakulteti professori (Turkiya)

S. Ma'mun – Islam Negeri universiteti o'qituvchisi (Indoneziya)

Sh. Asadov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

I. Ergashev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, yuridik fanlar doktori, professor

J. Nematov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ma'muriy va moliya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. Aminjonova – O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Qonunchilik ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

M. Rahimov – Toshkent davlat yuridik universiteti Mehnat huquqi kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

I. Djurayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Sud, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va advokatura kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori, professor

O. Narzullayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ekologiya huquqi kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

F. Maxmudov – Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, dotsent

M. Qodirova – Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoyat-protsessual huquqi kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

I. Yakubova – Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

A. Muxamedjanov – Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. Niyazova – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida professori v.b., pedagogika fanlari nomzodi

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Вестник юридических наук – Yuridik fanlar axborotnomasi – Review of Law Sciences» зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 0931.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Ответственный за выпуск:
О. Чориев

Редакторы:

Е. Ярмолик, Й. Махмудов,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Ф. Мухаммадиева, М. Шарифова,
Ш. Бекназарова, Э. Шарипов

Корректор:

М. Турсунов

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайилгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Подписной индекс: 1385.

Издательская лицензия

от 29.11.2023 № 174625.

Журнал передан в типографию
24.12.2025.

Формат бумаги: А4.

Усл. п. л. 19,7. Тираж: 100 экз.

Номер заказа: 210.

Лицензия типографии

от 29.11.2023 № 174626.

Отпечатано в типографии

Ташкентского государственного
юридического университета.

100047, г. Ташкент, ул. Сайилгох, дом 37.

© Ташкентский государственный
юридический университет

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – ректор Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

З. Эсанова – проректор Ташкентского государственного юридического университета по научной работе и инновациям, доктор юридических наук, профессор

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

О. Чориев – начальник редакционно-издательского отдела Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Е. Канязов – директор Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, кандидат юридических наук

Ж. Ташкулов – заведующий отделом Института государства и права Академии наук, доктор юридических наук, профессор

У. Тухташева – заместитель директора Агентства по противодействию коррупции Республики Узбекистан, доктор юридических наук, профессор

М. Ясан – профессор юридического факультета Университета Балыкесир (Турция)

С. Маъмун – преподаватель Исламского государственного университета (Индонезия)

Ш. Асадов – профессор кафедры правовых основ государственного устройства и управления Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан, доктор юридических наук

И. Эргашев – начальник отдела контроля качества образования Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

Ж. Нематов – профессор кафедры административного и финансового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

М. Аминжонов – доцент кафедры организации контроля за исполнением законодательства Правоохранительной академии Республики Узбекистан, доктор юридических наук

М. Рахимов – доцент кафедры трудового права Ташкентского государственного юридического университета, доктор философии по юридическим наукам

И. Джураев – заведующий кафедрой суда, правоохранительных органов и адвокатуры Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук, профессор

О. Нарзуллаев – профессор кафедры экологического права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Ф. Махмудов – заместитель директора Института переподготовки и повышения квалификации юридических кадров при Министерстве юстиции, доктор юридических наук, доцент

М. Кодирова – доцент кафедры уголовно-процессуального права Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

И. Якубова – доцент кафедры права интеллектуальной собственности Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

А. Мухамеджанов – профессор кафедры международного права и прав человека Ташкентского государственного юридического университета, доктор юридических наук

Н. Ниязова – и. о. профессора кафедры узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета, кандидат педагогических наук

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yuridik fanlar axborotnomasi – Вестник юридических наук – Review of law sciences” legal scientific-practical journal was registered by Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020, with certificate number 0931.

The journal is included in the list of journals of the Supreme Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of materials of the journal are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Publication Officer:

O. Choriev

Editors:

Y. Yarmolik, Y. Makhmudov,
E. Mustafaev, K. Abduvalieva,
F. Mukhammadieva, M. Sharifova,
Sh. Beknazarova, E. Sharipov

Proofreader:

M. Tursunov

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Publishing department address:

100047. Tashkent city,
Sayilgoh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

Publishing license

№ 174625, 29.11.2023.

The journal is submitted to the Printing house on 24.12.2025.

Paper size: A4.

Cond.p.f: 19,7.

Units: 100. Order: № 210.

Printing house license

№ 174626, 29.11.2023.

Published in the Printing house of
Tashkent State University of Law.
100047. Tashkent city, Sayilgoh street, 37.

© Tashkent State University of Law

EDITORIAL BOARD
EDITOR-IN-CHIEF

B. Xodjaev – Rector of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

Z. Esanova – Deputy Rector for Scientific Affairs and and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

EXECUTIVE EDITOR

O. Choriev – Head of the Publishing Department of Tashkent State University of Law

MEMBERS OF EDITORIAL BOARD

Y. Kanyazov – Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Candidate of Legal Sciences

J. Tashkulov – Head of the Department of the Institute of State and Law of the Academy of Sciences, Doctor of Law, Professor

U. Tuxtasheva – Deputy Director of the Anti-Corruption Agency, Doctor of Law, Professor

M. Yasan – Professor of the Faculty of Law, Balikesir University (Turkey)

S. Ma'mun – Lecturer at Universitas Islam Negeri (Indonesia)

Sh. Asadov – Professor of the Department of Legal Foundations of State Structure and Administration of the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

I. Ergashev – Head of the Department of Education Quality Control of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

J. Nematov – Professor of the Department of Administrative and Financial Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

M. Aminjonova – Associate Professor of the Department of Organization of Control over the Execution of Legislation of the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law

M. Rahimov – Associate Professor of the Department of Labor Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

I. Djuraev – Head of the Department of Court, Law Enforcement Agencies and Advocacy of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

O. Narzullaev – Professor of the Department of Environmental Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

F. Makhmudov – Deputy Director of the Institute for Retraining and Advanced Training of Legal Personnel under the Ministry of Justice, Doctor of Law, Associate Professor

M. Qodirova – Associate Professor of the Department of Criminal Procedure Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

I. Yakubova – Associate Professor of the Department of Intellectual Property Law of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

A. Mukhamedjanov – Professor of the Department of International Law and Human Rights of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

N. Niyazova – Acting Professor of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Candidate of Pedagogical Sciences

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI VA TARIXI. HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

11 HAYITOV SHERZOD RAXMATULLAYEVICH

Eksperimental huquqiy rejimlarni loyihalashtirish: nazariy-huquqiy tahlil

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

19 MASKAYEVA NATALYA GENNADYEVNA

Polsha Respublikasining "Insofsiz raqobatga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida tegishli mazmun va belgilangan shakldagi xabarnoma taqdim etish talabi

35 ESHONQULOV JAVOXIR FAZLIDDINOVICH

Raqamli bozorda iqtisodiy konsentratsiya tushunchasi va uni huquqiy aniqlash muammolari

53 ALLAKULIYEV MIRJALOL DAVRONBEKOVICH

Raqamli platformalar operatorlarining foydalanuvchi kontenti uchun delikt javobgarligi

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

69 OTAMIRZAYEV OYBEK MURODULLO O'G'LI

Yerosti suvlari bilan bog'liq qonunchilikni takomillashtirish masalalari

77 RAXMATOVA DILAFRUZ IXTIYOR QIZI, SAYFULLAYEV FERUZ BOTIR O'G'LI

Elektron chiqindilarning huquqiy tushunchasi

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

90 KARAKETOVA DILNOZA YULDASHEVNA

Jinoyat subyektining jins bilan bog'liq fakultativ belgilari

99 NURMANOV XOLBEK RAHMATILLA O'G'LI

Jinoyat subyekti sifatida sun'iy intellekt javobgarligi masalasi

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI. KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA SUD
EKSPERTIZASI

108 DJURABAYEV RUSTAM TURABBAYEVICH

Jamoat xavfsizligini ta'minlashda qidirilayotgan jinoyatchilarni ushlab tashning taktik xususiyatlari

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

119 INOYATOV NODIRBEK XAYITBOY O'G'LI

Sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasiga qiyosiy yondashuv: Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston tajribasi

12.00.13 – INSON HUQUQLARI

130 NOSIROVA MARJONA NEGMAT QIZI

Inson huquqlari sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy va ijtimoiy faolligi

141 XUDAYBERDIYEVA MAFTUNA ZAFAR QIZI

Bolalar huquqlarining milliy va xalqaro huquqiy tizimdagi o'rni: O'zbekiston Respublikasi misolida nazariy-amaliy tahlil

12.00.14 – HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI. JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH.
PROBATSIIYA FAOLIYATI

153 **XO'JAMBERDIYEV FARRUX KOMILOVICH**

Fransiyaning jamoat xavfsizligini ta'minlash modeli: institutsional-huquqiy tahlil va O'zbekistonda
qo'llash istiqbollari

167 **AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**

Konstitutsiya – inson qadri, huquq va erkinliklarining mustahkam huquqiy kafolati

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.01 – ТЕОРИЯ И ИСТОРИЯ ГОСУДАРСТВА И ПРАВА. ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ

11 ХАЙТОВ ШЕРЗОД РАХМАТУЛЛАЕВИЧ

Проектирование экспериментальных правовых режимов: теоретико-правовой анализ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

19 МАСКАЕВА НАТАЛЬЯ ГЕННАДЬЕВНА

Требование о предоставлении уведомления соответствующего содержания и надлежащей формы в Законе Республики Польша «О борьбе с недобросовестной конкуренцией»

35 ЭШОНКУЛОВ ЖАВОХИР ФАЗЛИДДИНОВИЧ

Понятие экономической концентрации на цифровом рынке и проблемы её правового определения

53 АЛЛАКУЛИЕВ МИРЖАЛОЛ ДАВРОНБЕКОВИЧ

Деликтная ответственность операторов цифровых платформ за пользовательский контент

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

69 ОТАМИРЗАЕВ ОЙБЕК МУРОДУЛЛО УГЛИ

Проблемы совершенствования законодательства, связанного с подземными водами

77 РАХМАТОВА ДИЛАФРУЗ ИХТИЁР КИЗИ, САЙФУЛЛАЕВ ФЕРУЗ БОТИР УГЛИ

Юридическое понятие электронных отходов

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

90 КАРАКЕТОВА ДИЛНОЗА ЮЛДАШЕВНА

Факультативные признаки субъекта преступления, обусловленные полом

99 НУРМАНОВ ХОЛБЕК РАХМАТИЛЛА УГЛИ

Вопрос ответственности искусственного интеллекта как субъекта преступления

12.00.09 – УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА. ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО. СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА

108 ДЖУРАБАЕВ РУСТАМ ТУРАББАЕВИЧ

Тактические особенности задержания разыскиваемых преступников при обеспечении общественной безопасности

12.00.10 – МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРАВО

119 ИНОЯТОВ НОДИРБЕК ХАЙИТБОЙ УГЛИ

Сравнительный подход к вопросу правового статуса искусственного интеллекта: опыт Европейского союза и Узбекистана

12.00.13 – ПРАВА ЧЕЛОВЕКА

130 НОСИРОВА МАРЖОНА НЕГМАТ КИЗИ

Правовая и социальная активность негосударственных некоммерческих организаций в области прав человека

141 ХУДАЙБЕРДИЕВА МАФТУНА ЗАФАР КИЗИ

Роль прав детей в национальной и международной правовой системе: теоретико-практический анализ на примере Республики Узбекистан

12.00.14 – ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПНОСТИ. ОБЕСПЕЧЕНИЕ ОБЩЕСТВЕННОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ. ПРОБАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

153 **ХУЖАМБЕРДИЕВ ФАРРУХ КОМИЛОВИЧ**

Модель обеспечения общественной безопасности Франции: институционально-правовой анализ и
перспективы применения в Узбекистане

167 **АЗИМОВ ХАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**

Конституция – надёжная правовая гарантия достоинства человека, его прав и свобод

CONTENTS

12.00.01 – THEORY AND HISTORY OF STATE AND LAW. HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

11 **HAYITOV SHERZOD RAKHMATULLAEVICH**

Designing of experimental legal regimes: theoretical and legal analysis

12.00.03 – CIVIL LAW. BUSINESS LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

19 **MASKAEVA NATALYA GENNADYEVNA**

The requirement to submit a notification of appropriate content and subject form under the law of the Republic of Poland “on combating unfair competition”

35 **ESHONKULOV JAVOKHIR FAZLIDDINOVICH**

The concept of economic concentration in the digital market and the challenges of its legal definition

53 **ALLAKULIEV MIRJALOL DAVRONBEKOVICH**

Tort liability of digital platform operators for user content

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

69 **OTAMIRZAEV OYBEK MURODULLO UGLI**

Issues of improving legislation related to groundwater

77 **RAKHMATOVA DILAFRUZ IKHTIYOR KIZI, SAYFULLAEV FERUZ BOTIR UGLI**

The legal concept of electronic waste legal concept of electronic waste

12.00.08 – CRIMINAL LAW. CRIMINAL-EXECUTIVE LAW

90 **KARAKETOVA DILNOZA YULDASHEVNA**

Gender-related facultative characteristics of the crime subject

99 **NURMANOV KHOLBEK RAHMATILLA UGLI**

The issues of liability of artificial intelligence as a subject of crime

12.00.09 – CRIMINAL PROCEEDINGS. FORENSICS, INVESTIGATIVE LAW AND FORENSIC EXPERTISE

108 **DJURABAEV RUSTAM TURABBAEVICH**

Tactical features of apprehending wanted criminals in ensuring public safety

12.00.10 – INTERNATIONAL LAW

119 **INOYATOV NODIRBEK KHAYITBOY UGLI**

Comparative approach to the legal status of artificial intelligence: the experience of the European Union and Uzbekistan

12.00.13 – HUMAN RIGHTS

130 **NOSIROVA MARJONA NEGMAT KIZI**

Legal and social activity of non-governmental non-profit organizations in the field of human rights

141 **KHUDAYBERDIYEVA MAFTUNA ZAFAR KIZI**

The role of children’s rights in national and international legal systems: a theoretical and practical analysis based on the example of the Republic of Uzbekistan

12.00.14 – CRIME PREVENTION. ENSURING PUBLIC SAFETY. PROBATION ACTIVITY

153 **KHUJAMBERDIYEV FARRUKH KOMILOVICH**

The model of ensuring public security in France: institutional-legal analysis and prospects for application in Uzbekistan

167 **AZIMOV HAKIMALI IMOMOVICH**

The Constitution – a strong legal guarantee of human dignity, rights, and freedoms

Kelib tushgan / Получено / Received: 29.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 11.12.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.4./XXYE4450

UDC: 340.11(045)(575.1)

EKSPERIMENTAL HUQUQIY REJIMLARNI LOYIHALASHTIRISH: NAZARIY-HUQUQIY TAHLIL

Hayitov Sherzod Raxmatullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Davlat va huquq nazariyasi
kafedrası professori v.b.,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
ORCID: 0000-0003-3804-7210
e-mail: xayitov085@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy yondashuv asosida huquq ijodkorligi jarayonida so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan usullardan biri – eksperimental huquqiy rejimlar (EHR)ning nazariy mohiyati, ularni qo'llash mexanizmlari hamda qo'llashning afzallik va kamchiliklari ilmiy asosda yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada eksperimental huquqiy rejimlar (EHR)ning qonun ustuvorligi, tenglik va huquqiy aniqlik tamoyillariga ta'siri tahlil qilingan. Muallif rus va xorijlik huquqshunolar fikrlariga tayangan holda, EHRlarning huquqiy va metodologik asoslarini yaratish zarurligini asoslaydi. Xususan, huquqiy eksperimentning huquq tizimidagi o'rni, uning siyosiy-huquqiy shartlari, loyihalash va baholash bosqichlari, xalqaro va milliy tajribalar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada eksperimental huquqiy rejimlar huquqiy aniqlik, tenglik va adolat tamoyillariga xavf solishi mumkinmi, degan masala ham o'rganilgan. Chunki EHR doirasida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy maqomi o'zgarib, ular ma'lum huquqiy imtiyozlarga ega bo'ladi, natijada boshqa subyektlar esa umumiy qoidalar ta'siri ostida qoladi. Aynan ushbu holatni ayrim tadqiqotchilar adolat va tenglik tamoyillariga zid deb baholaydi. Shuningdek, maqolada ilmiy xulosalar hamda milliy qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: eksperimental huquqiy rejimlar, tajriba, huquqiy eksperiment, huquq ijodkorligi, qonun ustuvorligi, qonun hujjatlari, qonun loyihasi, me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ta'sirini baholash, tenglik

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫХ ПРАВОВЫХ РЕЖИМОВ: ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ

Хаитов Шерзод Рахматуллаевич,
доктор философии по юридическим наукам,
и. о. профессора кафедры «Теория государства и права»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье на основе современного подхода освещается теоретическая сущность одного из наиболее динамично развивающихся в последние годы методов в процессе правотворчества – экспериментальных правовых режимов, а также механизмы их применения, преимущества и недостатки использования. В статье анализируется

влияние экспериментальных правовых режимов на принципы верховенства права, равенства и правовой определённости. Опираясь на взгляды российских и зарубежных правоведов, автор обосновывает необходимость формирования правовых и методологических основ экспериментальных правовых режимов. В частности, исследуются место правового эксперимента в правовой системе, его политико-правовые предпосылки, этапы проектирования и оценки, а также международный и национальный опыт. Кроме того, в статье рассматривается вопрос о том, могут ли экспериментальные правовые режимы создавать риски для принципов правовой определённости, равенства и справедливости. Это связано с тем, что в рамках экспериментальных правовых режимов правовой статус участвующих субъектов изменяется, они получают определённые правовые льготы, в то время как другие субъекты продолжают находиться под действием общих правил. Именно данное обстоятельство рядом исследователей оценивается как противоречащее принципам справедливости и равенства. В завершение статьи сформулированы научные выводы и выдвинуты практические предложения, направленные на совершенствование национального законодательства.

Ключевые слова: экспериментальные правовые режимы, эксперимент, правовой эксперимент, правотворчество, верховенство права, законодательство, законопроект, оценка воздействия нормативно-правовых актов, равенство

DESIGNING OF EXPERIMENTAL LEGAL REGIMES: THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS

Hayitov Sherzod Rakhmatullaevich,

Acting Professor of the Department of Theory of State and Law,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. In this article, based on a modern approach, the theoretical essence of one of the rapidly developing methods of lawmaking in recent years – experimental legal regimes (EHR), the mechanisms of their application, as well as the advantages and disadvantages of their application, are scientifically substantiated. The article also analyzes the impact of experimental legal regimes (EHR) on the principles of the rule of law, equality, and legal certainty. The author, based on the opinions of Russian and foreign lawyers, substantiates the need to create a legal and methodological basis for EHRs. In particular, the role of the legal experiment in the legal system, its political and legal conditions, the stages of design and evaluation, and international and national experience are analyzed. In addition, the article examines whether experimental legal regimes can pose a threat to the principles of legal certainty, equality, and justice. Because the legal status of entities participating in the EHR changes, they receive certain legal privileges, and as a result, other entities are subject to the general rules. It is this situation that some researchers consider contrary to the principles of justice and equality. The article also presents scientific conclusions and practical proposals aimed at improving national legislation.

Keywords: experimental legal regimes, experiment, legal experiment, lawmaking, rule of law, legislation, draft law, impact assessment of regulatory legal acts, equality

Kirish

Yangi texnologiyalar va g'oyalarning paydo bo'lishi butun huquqiy tizimlar rivojida yangicha yondashuv va usullardan foydalanish tendensiyalarini yuzaga keltirishi

ko'plab omillarga bog'liq holda kechadigan tabiiy jarayondir. Huquq ijodkorlarining yangi innovatsiyalarga moslashgan holda faoliyat olib borishi, shuningdek, yangi usul va yondashuvlarni sinovdan o'tkazishi zamon

talablaridan biridir. So'nggi o'n yil davomida huquq ijodkorligi, davlat mexanizmi va boshqaruvi sohasida innovatsion yondashuvlardan biri sifatida eksperimental huquqiy rejimlar, jumladan, ularning bir turi bo'lgan "Regulatory Sandbox" (Banerjee & Duflo, 2009) faol muhokama qilinib, amaliyotda keng qo'llanmoqda. Mazkur rejimlar, ayniqsa, raqamli texnologiyalar, fintex va biotexnologiyalar kabi sohalarda innovatorlarga yangi g'oyalarni "nazorat qilinadigan va xavfsiz muhitda" sinovdan o'tkazish imkonini bermoqda (Baldwin, 2010).

Zamonaviy huquq tizimlarida innovatsiyalarni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik sohalardagi tezkor o'zgarishlari huquq ijodkorligining ham zamon talabiga mos bo'lishini taqozo etmoqda. Ana shu sharoitda huquqshunoslar va siyosatchilar tomonidan eksperimental huquqiy rejimlar (EHR) tushunchasi ilgari surilmoqda (Conseil d'État, 2019).

Metodlar

Maqolada tahlil va sintez, mantiqiy, tizimli va tarixiy usullar kabi atrofdagi dunyoni tushunishning umumiy ilmiy usullari, shuningdek, qiyosiy huquqiy, rasmiy huquqiy usul kabi xususiy huquqiy usullar qo'llanadi.

Natijalar

EHRlar yangi g'oyalar va innovatsiyalarni huquqiy normalarda aks ettirishdan oldin uning samaradorligi va huquqiy ta'sirini maxsus, cheklangan vaqt va makonda, "huquqiy maydonda" sinab ko'rishni nazarda tutadi. Bu jarayon ko'pincha "qonunchilik laboratoriyasi" deb ham ataladi (Cuttino, 2021). Eksperimental huquqiy rejimlar, odatda, umumiy qoidalar va tartibdan muayyan hudud, vaqt bilan chekinish shaklida namoyon bo'ladi (Druckman et al., 2011). Bu degani – muayyan hudud va muddat ichida umumiy tartibdan boshqa huquqiy rejim qo'llanishi, uning samaradorligini sinovdan o'tkazish jarayonidir. Fransiya Davlat Kengashi (Con-

seil d'État)ning 2019-yilgi yillik hisobotida ma'lum qilinishicha, eksperimental huquqiy rejim – bu belgilangan muddat davomida muayyan huquqiy qoidalardan vaqtinchalik chetga chiqish orqali yangi huquqiy yechimlar sinab ko'rish usulidir (Mousmouti, 2019).

Ammo olimlar o'rtasida eksperimental huquqiy rejimga nisbatan turli yondashuvlar mavjud. Bir guruh olimlar EHRlarni huquq ijodkorligi jarayonida samarali va ilmiy asoslangan, sinalgan qarorlar qabul qilish uchun muhim zarur vosita sifatida baholaydi (Radaelli & de Francesco, 2010). Ularning fikricha, eksperimental huquqiy rejimni qo'llash davlatga yangi startap va innovatsiyalarni nisbatan xatarsiz tarzda sinab ko'rish imkonini beradi (Van Gestel & de Poorter, 2016).

Yana bir guruh huquqshunos olimlar (Mausoti, Xabrieval, Baxin) eksperimental huquqiy rejimlar bir qator huquqiy tamoyillarga zid kelishi orqali ularning mavjudligiga tahdid solishini ta'kidlaydilar (Ranchordás & van Klink, 2020). Xususan, qonuniylik, tenglik hamda huquqiy aniqlik prinsiplari shular jumlasidandir. Olimlarning fikriga ko'ra, turli subyektlarning har xil huquqiy sharoitlarda faoliyat yuritishi adolat tamoyiliga ziddir. Shu sababli eksperimental huquqiy rejimlar faqat aniq belgilangan huquqiy va puxta metodologik asoslar bilan ta'minlangandagina samarali bo'lishi va amaliyotda qo'llanishi mumkin.

Eksperimental huquqiy rejim (EHR) – bu huquqiy tizimda muayyan sohada yangi me'yoriy yechimlarni sinovdan o'tkazish uchun yaratiladigan vaqtinchalik huquqiy maydondir. Uning asosiy xususiyati amaldagi qonunchilikning barqaror normalaridan vaqtinchalik chetlanish va yangicha mexanizmlarni tekshirish imkoniyatidir.

Rossiya Federatsiyasining 2020-yil 31-iyuldagi "Raqamli innovatsiyalar sohasida eksperimental huquqiy rejimlar to'g'risi"dagi Federal qonuni EHR "raqamli innovatsiyalar sohasida yangi huquqiy yechimlarni aprobat siya qilish uchun maxsus huquqiy rejim" sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda EHR instituti hali to'liq huquqiy normalar, qonun shaklida joriy etilmagan bo'lsa-da, ayrim sohalarda, masalan, fintex va raqamli iqtisodiyotga oid Prezident farmonlarida huquqiy eksperiment elementlari mavjud.

Huquqshunos olimlar EHR tushunchasini turlicha izohlaydi.

Pozitivistlar EHR – qonun ijodkorligini empirik asoslash vositasi deb hisoblasa, normativist olimlar esa (Mousmouti, Xabrieva) eksperimental huquqiy rejim – qonuniylik va tenglik prinsipiga tahdid solishi mumkin bo'lgan usul sifatida baholaydi.

Bizning fikrimizcha, EHR huquqiy innovatsiyalarning zarur laboratoriyasidir, ammo ular qat'iy huquqiy va metodologik filtrlarsiz amalga oshirilmasligi shart.

Ilmiy bahs, asosan, ikki nuqtayi nazarning qarama-qarshiligida namoyon bo'ladi:

EHR – innovatsiya va dalillarga asoslangan siyosiy-huquqiy islohotlar uchun zaruriy vositami?

Yoki EHR – huquqiy aniqlik, qonuniylik va tenglik prinsiplariga tahdidmi?

Ushbu ilmiy bahs huquqshunoslikda haligacha o'z yechimini uzil-kesil topmagan. Shuning uchun ham mazkur maqolada har ikki yondashuv tahlil qilinadi.

Qonuniylik prinsipiga ko'ra, eksperimental huquqiy rejimlarning eng muhim kamchiligi – bu ularning qonuniylik bilan uyg'unligi, mosligi masalasidir. Huquqiy tizimda qonun ustuvorligi tamoyili asosiy qadriyat hisoblanadi. Ammo eksperimental huquqiy rejimni qo'llash jarayonida aynan shu qoidadan vaqtinchalik chetga chiqishga to'g'ri keladi, jumladan, muayyan subyektlar uchun boshqalarnikidan farq qiladigan shart-sharoit, huquqiy maydon yaratilishi nazarda tutiladi.

Masalan, Fransiyada EHR faqat qonun darajasida joriy etilishi mumkin va uning muddati chegaralangan. Rossiya Federatsiyasining 2020-yilgi qonuniga ko'ra, raqamli innovatsiyalarni sinash uchun maxsus huquqiy

rejim 3 yildan oshmasligi kerak va parlament nazorati ostida amalga oshiriladi.

Eksperimental huquqiy rejimlar tenglik va adolat prinsiplari uchun ham muayyan xavf tug'dirishi mumkin. Chunki EHR doirasida ishtirok etuvchi subyektlarning huquqiy maqomi o'zgarib, ular ma'lum huquqiy imtiyozlarga ega bo'ladi. Boshqa subyektlar esa umumiy huquqiy qoidalar ta'siri ostida qoladi. Aynan shu holat ayrim olimlar tomonidan adolat va tenglik prinsiplari buzilishi sifatida baholanadi.

T.Y. Xabriyevaning fikricha, huquqiy eksperiment "huquqiy xavf"ni o'z ichiga oladi (Khabrieva, 2010), chunki u ijtimoiy munosabatlarda differensiyalashtirilgan huquqiy tartibni vujudga keltiradi. Biroq S.V. Baxinning ta'kidlashicha, bunday xavf-xatlarni minimallashtirish mumkin (Bakhin, 2015). Xususan, agar eksperimental huquqiy rejimning shartlari aniq va oshkora tarzda belgilansa hamda unda ishtirok etish har bir subyekt uchun ixtiyoriy bo'lsa, ushbu xavflarni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Huquqiy aniqlik (legal certainty) – bu huquq ustuvorligi g'oyasining ajralmas qismidir. EHR joriy etilganda, uni o'tkazayotgan hudud, vaqt va huquqiy maydon vaqtinchalik va noaniq bo'lish ehtimoli doim mavjud.

Huquqshunos olim Mausmutining fikricha, agar EHR metodologik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, uning natijalari huquqiy jihatdan ishonchsiz, samarasiz bo'lib qoladi. Van Gestel va De Porterlar esa EHR usulidan foydalanish, huquq ijodkorlari "dalillarga asoslangan" va aniqroq qarorlar qabul qiladi, deb hisoblaydi (Van Gestel & de Poorter, 2016).

Bizning fikrimizcha, eksperimental huquqiy rejimlarni huquq ustuvorligi, huquqiy aniqlik va adolat prinsiplari bilan ziddiyatda deb baholashdan ko'ra, ularni qat'iy belgilangan huquqiy hamda metodologik asoslar bilan ta'minlagan holda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Yuqorida qayd etilgan talab va mezonlarga rioya etilgan taqdirda, EHRLar

orqali sifatli va amaliyotda sinalgan huquqiy normalar yaratish mumkin. Aks holda esa bunday rejimlar jamiyatda notenglik, adolatsizlik va huquqiy tizimga bo'lgan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud.

Eksperimental huquqiy rejimlarning samaradorligi, avvalo, ularning to'g'ri metodologik asosga ega bo'lishiga bog'liq. Agar EHR ilmiy tadqiqotlarga xos mezonlarga mos tarzda rejalashtirilmasa, uning natijalari ishonchsiz bo'lib qoladi va o'zining huquqiy qiymatini yo'qotadi. Shu sababli EHRlarning o'tkazish jarayoni, metodologiyasi kamida to'rtta asosiy tarkibiy qismdan iborat bo'lishi lozim: 1) EHRlarni loyihalashtirish; 2) EHRlarning nazorat va ta'sir guruhlarini belgilab olish; 3) EHR natijalarni baholash mezonlari; 4) shaffoflik hamda huquqiy ishonchni ta'minlash bosqichlari.

EHRlarning loyihalashtirish bosqichi har qanday huquqiy eksperimentning muhim poydevori hisoblanadi. Unda quyidagilar belgilanishi shart:

- EHRni o'tkazishdan ko'zlangan maqsad aniqlashtirilishi (ya'ni eksperiment qaysi huquqiy muammoni hal etishga qaratilgan?);

- oldinga surilayotgan faraz (gipoteza), ya'ni qanday o'zgarish huquqiy yoki iqtisodiy samara keltiradi, degan ilmiy faraz ilgari surilmoqda;

- EHR davom etish muddati qancha;

- EHRni ishga tushirish orqali qaysi umumiy normalardan vaqtinchalik chetga chiqilmoqda?

Masalan, tartibga solish qumdonida gipoteza quyidagi tarzda ilgari surilishi mumkin: "Litsenziya talablarini yengillashtirish innovatsiyalarni rag'batlantiradimi?" Bu savol aniq, fahmlash mumkin va amalda tekshirish imkoniyati mavjud.

T.Y. Xabriyevaning ta'kidlashicha, har qanday huquqiy eksperiment "o'ylab topilgan emas, balki ijtimoiy ehtiyojdan kelib chiqqan" bo'lishi shart (Khabrieva, 2010). Shuning uchun EHRlardan foydalanish yoki foydalanmaslik masalasi subyektiv omillarga bog'la-

nib qolmasligi, balki obyektiv muammolarga javob sifatida qo'llanishi zarur.

Muhokama

Ilmiy tadqiqotlarda ilgari surilayotgan gipotezani tekshirish uchun, odatda, nazorat va ta'sir guruhlarini ajratiladi. Huquqiy tizimda bunday yondashuvni qo'llash murakkab bo'lsa-da, uni mutlaqo imkonsiz deb bo'lmaydi. Xususan, raqamli xizmatlar sohasidagi eksperimental huquqiy rejim doirasida litsenziya talablari yengillashtirilgan kompaniyalar ta'sir guruhini, umumiy tartibda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar esa nazorat guruhini tashkil etishi mumkin. Bu usul qonuniylik va tenglik masalalariga ta'sir qiladi. Shuning uchun nazorat va ta'sir guruhlarini belgilashda ikki muhim talabga rioya qilinishi zarur:

Ixtiyoriylik – subyektlar eksperimental huquqiy rejimda ishtirok etish yoki etmaslik huquqiga ega bo'lishi lozim.

Tipiklik – ishtirokchilarni tanlashda ularning turli sohalarni qamrab olishi hamda jamiyatning o'rtacha ko'rsatkichlarini ifodalashi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu shartlar ta'minlanmagan taqdirda, eksperimental huquqiy rejim natijalari nisbatan ishonchsiz bo'lishi, shuningdek, huquq ijodkorligi uchun yetarli asos bo'la olmasligi mumkin.

Eksperimentning haqiqiy ahamiyati uning natijalarini baholash jarayonida namoyon bo'ladi. Baholash samarali bo'lishi uchun quyidagilar zarur:

- baholash mezonlarini aniq belgilash, ya'ni samaradorlik qaysi ko'rsatkichlar orqali o'lchanishini aniqlash (masalan, innovatsiyalar soni, jalb qilingan sarmoya miqdori, iste'molchilar huquqlarining himoya darajasi);

- baholash jarayonida qo'llanadigan metodlarni belgilash (statistik, qiyosiy yoki boshqa huquqiy-tahliliy usullar).

EHR natijalari kim tomonidan baholanishi aniq ko'rsatilishi lozim. Bunda mustaqil ekspertlar yoki maxsus davlat idoralari mutaxassislari ishtirok etishi shart.

Eksperimental huquqiy rejim doirasida qo'llanadigan cheklovlarning doirasi va darajasi oldindan aniq belgilanishi lozim. Agar EHR o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erisha olmasa, uni muddatidan avval to'xtatib turish yoki butunlay tugatish imkoniyati nazarda tutilishi kerak.

Fransiya Davlat Kengashi 2019-yilgi hisobotida eksperimental huquqiy rejimlar natijalari maxsus komissiyalar tomonidan baholanishi lozimligini ta'kidlagan. Rossiya qonunchiligiga ko'ra, EHR natijalari har yili parlamentga taqdim etiladi (Bakhin, 2015).

EHRda natijasida to'plangan ma'lumotlar shaffof va hamma uchun ochiq bo'lishi kerak. Buning uchun maxsus ma'lumotlar bazasi yaratilib, unda ishtirokchilar to'g'risidagi umumiy statistik ko'rsatkichlar e'lon qilinishi lozim.

Shu bilan birga, ma'lumotlar shaxsiy hayot daxlsizligiga oid qonunlar (masalan, GDPR)ga zid kelmasligi shart. O'zbekistonda ham "Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun EHRLarda to'planadigan ma'lumotlardan foydalanishni tartibga solishi lozim.

Shaffoflik faqat texnik talab emas, balki qonun ustuvorligining asosiy talablaridan biridir. Agar EHR natijalari yopiq holda qolsa, fuqarolarning davlatga va qonunchilikka bo'lgan ishonchiga putur yetishi mumkin.

Xorijiy mamalakatlar tajribalariga e'tibor qaratsak, masalan, Fransiya Davlat Kengashi (Conseil d'État) 2019-yildagi yillik hisobotida eksperimental huquqiy rejimlar haqida alohida tahlil taqdim etgan. Unda EHRLar:

- faqat qonun darajasida joriy etilishi mumkinligi;
- muddati aniq belgilanishi shartligi;
- natijalari mustaqil komissiyalar tomonidan baholanishi lozimligi talablari mustahkamlab qo'yilgan.

Ushbu yondashuv EHRLarning qonuniylik va huquqiy aniqlikdan chetga chiqmasligini ta'minlaydi.

Germaniyada esa huquq tizimida qonuniy manfaat (berechtigtes Interesse) tushunchasi

muhim ahamiyatga kasb etadi. Eksperimental qonunchilikni amalga oshirishda subyektlarning qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash asosiy mezon sifatida qo'yiladi. Masalan, energiya bozoridagi ayrim EHRLarda iste'molchilar huquqlari himoyasi ustuvor shart sifatida belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida 2020-yilda "Raqamli innovatsiyalar sohasida eksperimental huquqiy rejimlar to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun raqamli texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun maxsus huquqiy maydon yaratishni nazarda tutadi (Bakhin, 2015). Unda EHR muddati 3 yildan oshmasligi, tajribaning natijalari har yili parlamentga taqdim etilishi hamda ishtirokchilar ixtiyoriylik asosida jalb etilishi masalalari belgilangan.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar yuzaga chiqmoqda, jumladan, huquqiy aniqlik yetarli darajada ta'minlanmagani va natijalarni baholash mexanizmlarining zaifligi haqida olimlar o'z tanqidiy munosabatlarini bildirishgan.

Yevropa Ittifoqida "yaxshiroq tartibga solish (Better Regulation)" dasturi doirasida qonunchilikda eksperimental tartibga solish usulidan foydalanib kelinmoqda. Bunda EHR natijalari ommaviy hisobotlarda e'lon qilinadi va fuqarolar fikri inobatga olinadi.

AQShda "tartibga solish qumdoni (regulatory sandbox)" ko'proq moliyaviy xizmatlar sohasida qo'llanadi. Masalan, fintex kompaniyalari Florida va Arizona shtatlarida litsenziya talablaridan vaqtinchalik ozod qilinib, yangi xizmatlarni sinovdan o'tkazishgan. Biroq bu yerda ham shaffoflik va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish asosiy talab, shart sifatida belgilangan.

O'zbekistonda hozircha maxsus eksperimental huquqiy rejimlar to'g'risida qonun mavjud emas. Biroq raqamli iqtisodiyot, fintex va innovatsiya sohaslarida Prezident farmonlari hamda qarorlari orqali vaqtinchalik huquqiy mexanizmlar joriy etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mah-

kamasining 2023-yil 23-noyabrdagi “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori orqali vaqtinchalik nizom tasdiqlangan. Ushbu nizom “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini joriy etish tartibi to‘g‘risida” (617-son, 23.11.2023) maxsus rejim joriy etish tartibini belgilaydi. Shu bilan birga, “Kapital bozori sohasida “Tartibga solish qumdoni” maxsus huquqiy rejimini taqdim qilish tartibi to‘g‘risida”gi (3493-son, 29.01.2024) nizom kapital bozori muhitidagi tartibni reglamentlash masalasini tartibga soladi.

Shunday qilib, tartibga solish qumdoni maxsus huquqiy rejimi yuridik shaxs bo‘lgan tadbirkorlik subyektlariga zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yangi mahsulot va xizmatlar yoki boshqa intellektual faoliyat natijalarini nazorat qilinadigan cheklangan muhitda sinovdan o‘tkazish faoliyatini maxsus tartibga solishni nazarda tutadi.

Masalan, elektron tijorat yoki kriptovalyuta bilan bog‘liq ayrim loyihalarda huquqiy eksperiment elementlari kuzatilmoqda. Bu esa milliy huquq tizimida EHR institutini qonun darajasida mustahkamlash zarurligini ko‘rsatadi.

Eksperimental huquqiy rejimlar zamonaviy huquq tizimida innovatsiyalarni sinovdan o‘tkazish va qonun ijodkorligini empirik asoslash vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat

kasb etmoqda. Biroq ularni samarali qo‘llash uchun qator shartlar bajarilishi zarur.

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, EHR – qonunchilikdagi yangi yechimlarni tekshirish imkonini beradigan, muayyan hudud va cheklangan vaqtda o‘tkaziladigan, alohida maqomga ega huquqiy-tajriba maydonidir.

Agar ushbu rejim to‘g‘ri tashkil etilmasa, ular qonuniylik, tenglik va huquqiy aniqlik prinsiplariga xavf tug‘dirish ehtimoli mavjud. Ammo undan foydalanish kerak emas degan xulosaga kelishni xato deb hisoblaymiz.

EHRdan faqat qat’iy mezonlar asosida, huquqiy va metodologik jihatdan to‘g‘ri yondashish orqali foydalanilsa, ijobiy samara beradi. Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatmoqdaki, EHRlardan foydalanishda shaffoflik va baholash mexanizmlari ustuvor ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda “Eksperimental huquqiy rejimlar to‘g‘risida” alohida qonun qabul qilish zarurati mavjud. Ushbu qonunda quyidagilar aks etishi lozim: EHRlarning metodologik standartlarini ishlab chiqish (loyihalash, nazorat, baholash); sud va ombudsman institutlarini EHRlarning qonuniyligini nazorat qilish jarayoniga jalb etish masalalari; EHR natijalarini ommaviy hisobotlarda e‘lon qilish orqali fuqarolar ishonchini oshirish hamda xalqaro tajribalardan ijobiy jihatlarini milliy huquqiy tizimga olib kirish.

REFERENCES

1. Bakhin, S. V. (2015). *Eksperiment v pravotvorchestve: rossiyskiy i zarubezhnyy opyt [Experiment in Lawmaking: Russian and International Experience]* (pp. 65–102). Saint Petersburg: Legal Center.
2. Baldwin, R. (2010). Better Regulation: The Search and the Struggle. *Modern Law Review*, 73(3) 413–436.
3. Banerjee, A. V., & Duflo, E. (2009). The experimental approach to development economics. *Annual Review of Economics*, 1, 151–178.
4. Conseil d’État. (2019). *Étude annuelle: L’expérimentation juridique [Annual study: Legal experimentation]* (pp. 5–72). French Documentation.

5. Cuttino, J. (2021). Legal experimentation and the rule of law. *Journal of Law and Innovation*, 14(2), 201–230.
6. Druckman, J. N., Green, D. P., Kuklinski, J. H., & Lupia, A. (2011). *Causality and experiments in political science* (pp. 23–61). Cambridge University Press.
7. Gromova, E., & Ivanc, T. (2020). Regulatory sandboxes (experimental legal regimes) for digital innovations in BRICS. *BRICS Law Journal*, 7(2), 10–36.
8. Khabrieva, T.Ya. (2010). *Pravovoy eksperiment: ponyatie i granitsy [Legal experiment: concept and boundaries]* (pp. 110–145). Moscow: Norma.
9. Mousmouti, M. (2019). *Designing effective legislation* (pp. 44–68). Edward Elgar Publishing.
10. Radaelli, C. M., & de Francesco, F. (2010). Evidence-based policy making in the EU. *Journal of European Public Policy*, 17(5), 637–655.
11. Ranchordás, S., & van Klink, B. (Eds.). (2020). Experimental legislation in times of crisis. *Law and Method*, 1–18.
12. Sushilnikov, I. S. (2023). *Konstitutsionno-pravovye osnovy eksperimentalnykh pravovykh rezhimov [Constitutional and legal foundations of experimental legal regimes]. Theoretical and Applied Jurisprudence*, 1(15), 109–121.
13. Svetiev, Y. (2020). *Experimentalist competition law and the regulation of markets* (p. 232). Hart Publishing.
14. Thomann, E. (2017). The notions of regulation and self-regulation in political science. *Journal of Self-Regulation and Regulation*, 3, 55–75.
15. Van Gestel, R., & de Poorter, J. (2016). *Evidence-based lawmaking and legal validity* (pp. 89–112). Hart Publishing.

Kelib tushgan / Получено / Received: 14.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.12.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.4./HUPD8791

UDC: 347.53(045)(575.1)

ТРЕБОВАНИЕ О ПРЕДОСТАВЛЕНИИ УВЕДОМЛЕНИЯ СООТВЕТСТВУЮЩЕГО СОДЕРЖАНИЯ И НАДЛЕЖАЩЕЙ ФОРМЫ В ЗАКОНЕ РЕСПУБЛИКИ ПОЛЬША «О БОРЬБЕ С НЕДОБРОСОВЕСТНОЙ КОНКУРЕНЦИЕЙ»

Маскаева Наталья Геннадьевна,
кандидат юридических наук, доцент
Белорусского государственного экономического университета
ORCID: 0000-0002-6347-3126
e-mail: maskayeva_nat@mail.ru

Аннотация. Статья посвящена предусмотренному подпунктом 3 пункта 1 статьи 18 Закона Республики Польша «О борьбе с недобросовестной конкуренцией» от 16 апреля 1993 года способу гражданско-правовой защиты от недобросовестной конкуренции, именуемому «требование о предоставлении уведомления соответствующего содержания в надлежащей форме». В свете недостатков института гражданско-правовой защиты от недобросовестной конкуренции в Республике Беларусь, влекущих его неэффективность в правоприменении, изучение правового опыта зарубежных государств в данной сфере является актуальным. С использованием общенаучных (анализ и синтез, индукция и дедукция) и частнонаучных методов (сравнительно-правового, формально-юридического, системного подхода, метода анализа судебной практики) проведён анализ указанной и иных норм законодательства Республики Польша, а также доктринальных подходов польских учёных и судебной практики по спорным вопросам применения норм Закона Польши «О борьбе с недобросовестной конкуренцией». Кроме того, рассмотрены положения белорусского законодательства в сфере гражданско-правовой защиты от недобросовестной конкуренции, выявлены проблемы его применения и сформулированы предложения по его совершенствованию. Полученные автором результаты могут быть использованы в нормотворческой деятельности, а также при проведении дальнейших научных исследований.

Ключевые слова: требование о предоставлении уведомления, соответствующее содержание, надлежащая форма, гражданско-правовая защита от недобросовестной конкуренции, публичные извинения, гражданско-правовая ответственность за недобросовестную конкуренцию, недобросовестная конкуренция, акт недобросовестной конкуренции, генеральная клаузула

6. Защита окружающей среды. Защита окружающей среды от негативного воздействия электронных отходов является одним из ключевых аспектов современного управления отходами. В рамках директивы предусмотрен ряд мер, направленных на обеспечение экологической безопасности и охраны здоровья человека. Например, экологические стандарты предусматривают строгие нормы в отношении опасных материалов.

Дополнение VIII к Директиве 2012/19/ЕС устанавливает технические требования, упомянутые в статье 8(3). Среди них:

участки хранения (включая временное хранение) WEEE до его обработки, которые должны включать: 1) непроницаемые поверхности с обеспечением сбора проливов и, при необходимости, декантов и очистителей-дегрязеров; 2) защищённые от погодных условий покрытия;

участки для обработки WEEE должны быть оснащены: 1) весами для измерения массы обрабатываемых отходов;

2) непроницаемыми поверхностями и водонепроницаемым покрытием для сбора проливов; 3) помещениями для хранения разобранных запасных частей; 4) контейнерами для аккумуляторов, конденсаторов с РСВ/РСТ и других опасных отходов, включая радиоактивные; 5) оборудованием для обработки воды в соответствии с санитарными и экологическими нормами (Picard, 2018).

7. Поддержка инноваций и улучшений. Секрет успешного управления электронными отходами заключается в постоянном внедрении инновационных технологий и методов, повышающих эффективность переработки и повторного использования. Директива поддерживает такие инициативы, создавая благоприятные условия для научных исследований и разработок в области экологии и обращения с отходами.

Поддержка инноваций является ключевым элементом эффективной стратегии обращения с э-отходами. Стимулирование исследований, внедрение новых технологий, совершенствование процессов переработки, а также поддержка малых и средних предприятий создают условия для повышения устойчивости систем обращения с электронными отходами. Это способствует улучшению состояния окружающей среды и открывает новые возможности для экономического роста и создания рабочих мест в XXI веке.

Таким образом, Директива WEEE (2012/19/EU) представляет собой важный инструмент управления электронными отходами в Европейском союзе, направленный на снижение их воздействия на окружающую среду и здоровье людей. Установленные требования к производителям, нормативы по сбору и переработке, а также создание эффективных систем утилизации способствуют устойчивому развитию и охране окружающей среды.

REFERENCES

1. Amankwah-Amoah, J. (2016). Global business and emerging economies: Towards a new perspective on the effects of e-waste. *Technological Forecasting and Social Change*, 105, 1–30. https://www.researchgate.net/publication/292376129_Global_business_and_emerging_economies_Towards_a_new_perspective_on_the_effects_of_e-waste
2. Baldé, C.P., Forti, V., Gray, V., Kuehr, R., & Stegmann, P. (2017). *The Global E-waste Monitor 2017*. United Nations University. <https://www.itu.int/en/ITU-D/Climate-Change/Documents/GEM%202017/Global-E-waste%20Monitor%202017%20.pdf>
3. Barsalou, O., & Hennesy, P. M. (2018). International environmental law in an era of globalized waste. *Chinese Journal of International Law*, 17(3), 887–906.
4. Carrey, L. (2006, December 19). *Nigeria e-waste toxic legacy*. BBC News. <http://news.bbc.co.uk/2/hi/africa/6193625.stm>
5. European Parliament and of the Council. (2008). Directive 2008/98/EC on waste and repealing certain Directives. *Official Journal of the European Union*, L 312.
6. European Parliament and of the Council. (2012). *Directive 2012/19/EU on waste electrical and electronic equipment (WEEE), Annex X*. *Official Journal of the European Union*, L 197/38. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32012L0019>
7. Grant, K., Goldizen, F. C., Sly, P. D., Brune, M. N., Neira, M., van den Berg, M., & Norman, R. E. (2013). Health consequences of exposure to e-waste: A systematic review. *The Lancet Global Health*, 1(6). [https://www.thelancet.com/journals/langlo/article/PIIS2214-109X\(13\)70101-3/fulltext](https://www.thelancet.com/journals/langlo/article/PIIS2214-109X(13)70101-3/fulltext)
8. Ivanova, A. P. (2021). Pravovoye regulirovaniye elektronnykh otkhodov: teoriya i praktika [Legal regulation of electronic waste: theory and practice]. *Social Sciences and humanities. Domestic and Foreign Literature*, (3), 136–145. <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovoe-regulirovanie-elektronnyh-othodov-teoriya-i-praktika/viewer>
9. Khovavko, I. Yu. (2016). Kontseptsiya ustoychivogo razvitiya v kontekste globalizatsii [The concept of sustainable development in the context of globalization]. *The Age of Globalization*, 3, 71–84.
10. Lepawsky, J. (2015). The changing geography of global trade in electronic discards. *The Geographical Journal*, 181(2). https://www.researchgate.net/publication/260605559_The_Changing_Geography_of_Global_Trade_in_Electronic_Discards_time_to_rethink_the_e-waste_problem
11. McElligott, M. A. (2020). Framework for Responsible Solar Panel Waste Management in the United States. *Oil and Gas, Natural Resources, and Energy Journal*, 5(3), 475–513.
12. National Committee on Ecology and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. (2024). *Natsional'nyy monitoring elektronnykh otkhodov v Uzbekistane 2024* [National monitoring of e-waste in Uzbekistan 2024]. UNITAR.
13. Picard, M. (2018). International environmental law in an era of globalized waste. *Chinese Journal of International Law*, 17(3), 887–906.
14. Puckett, J., Byster, L., Westervelt, S., Gutierrez, R., Davis, S., Hussain, A., & Dutta, M. (2002). *Exporting harm: The high-tech trashing of Asia*. Basel Action Network (BAN). http://wiki.ban.org/images/e/e1/Exporting_Harm_canada.PDF
15. Recycle.net. (n.d.). *Elektronnyye otkhody: problemy dlya okruzhayushchey sredy i sposoby utilizatsii* [Electronic waste: environmental problems and disposal options]. <https://rcycle.net/othody/vidy/elektronnye-problemy-dlya-okruzhayushhej-sredy-i-sposoby-utilizatsii>

Kelib tushgan / Получено / Received: 05.11.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 05.12.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.4./VSUN5918

UDC: 343.22(045)(575.1)

JINOYAT SUBYEKTINING JINS BILAN BOG'LIQ FAKULTATIV BELGILARI

Karaketova Dilnoza Yuldashevna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Jinoyat huquqi, kriminologiya
va korrupsiyaga qarshi kurashish
kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori
ORCID: 000-0001-8586-2328
e-mail: d.yu.karaketova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada jinoyat sodir etgan ayollar misolida jinoyat subyekti fakultativ belgisi, ya'ni jins omili bilan bog'liq jihatlar atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning statistik ko'rsatkichlari, ularning o'sish dinamikasi va hududlar kesimidagi holati yoritilgan. Shu bilan birga, olimlarning jinoyatchi ayollarning xususiyatlari haqidagi ilmiy qarashlari tahlil qilingan hamda ayollar sodir etgan jinoyatlarning sabablari ijtimoiy, psixologik va biologik omillar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Muallif JK va sud amaliyotida ayollarga nisbatan jazo tayinlashda bir qator yengilliklar mavjudligini, aksincha, homilador ayolga nisbatan jinoyat sodir etilishi jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanishini ta'kidlagan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, ayollarga nisbatan jazo qo'llashda jinsga oid fakultativ belgilar va ijtimoiy-huquqiy xususiyatlar inobatga olinadi, bu esa jinoyat qonunchiligida tenglik prinsipi bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy himoyani ta'minlashga xizmat qiladi. Sud amaliyoti misollarida jinoyat sodir etgan shaxsning ayol ekanligi jazo tayinlashda yengillashtiruvchi holat sifatida baholangan. Tadqiqot yakunida ayollarning jinoyatchiligini tahlil qilishda ularning fiziologik, psixologik va ijtimoiy-huquqiy xususiyatlarini hisobga olish zarurligi, shuningdek, jazo tayinlashda oila mustahkamligi va farzandlar tarbiyasidagi rolni inobatga olish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: ayollar jinoyatchiligi, jinoyat subyekti, fakultativ belgilar, jinoyat huquqi, jazo tayinlash, gender tenglik, homiladorlik, ijtimoiy omillar, sud amaliyoti, huquqiy tahlil

ФАКУЛЬТАТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ, ОБУСЛОВЛЕННЫЕ ПОЛОМ

Каракетова Дилноза Юлдашевна,
доктор философии по юридическим наукам,
доцент кафедры «Уголовное право, криминология
и противодействие коррупции»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье всесторонне проанализирован факультативный признак субъекта преступления, обусловленный полом, на примере женщин, совершивших

преступления. В исследовании освещены статистические показатели преступлений, совершаемых женщинами, динамика их роста и региональная структура. Наряду с этим проанализированы научные взгляды учёных на характеристики женщин-преступниц, а также причины совершения ими преступлений, рассмотренные во взаимосвязи с социальными, психологическими и биологическими факторами. Автор подчёркивает, что в Уголовном кодексе и судебной практике при назначении наказания женщинам предусмотрен ряд смягчающих обстоятельств, тогда как совершение преступления в отношении беременной женщины оценивается как отягчающее обстоятельство. Проведённый анализ показывает, что при применении наказания к женщинам учитываются факультативные признаки, связанные с полом, и социально-правовые особенности, что одновременно служит обеспечению принципа равенства в уголовном праве и реализации социальной защиты. На примерах судебной практики показано, что факт совершения преступления женщиной нередко признаётся смягчающим обстоятельством при назначении наказания. В заключение подчёркивается необходимость учёта физиологических, психологических и социально-правовых особенностей женщин при анализе женской преступности, а также важность принятия во внимание роли женщины в укреплении семьи и воспитании детей при назначении наказания.

Ключевые слова: женская преступность, субъект преступления, факультативные признаки, уголовное право, назначение наказания, гендерное равенство, беременность, социальные факторы, судебная практика, правовой анализ

GENDER-RELATED FACULTATIVE CHARACTERISTICS OF THE CRIME SUBJECT

Karaketova Dilnoza Yuldashevna,

Associate Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology, and Anti-Corruption,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *The article thoroughly analyzes aspects related to the facultative characteristic of the subject of the crime, that is, the gender factor, using the example of women who have committed crimes. The study highlights statistical indicators of crimes committed by women, the dynamics of their growth, and their state by region. At the same time, the scientific views of scientists on the characteristics of female criminals were analyzed, and the causes of crimes committed by women were studied in connection with social, psychological, and biological factors. The author notes that in the Criminal Code and judicial practice there are a number of mitigations in sentencing women; on the contrary, the commission of a crime against a pregnant woman is assessed as an aggravating circumstance. Analysis shows that when applying punishment to women, optional gender characteristics and socio-legal features are taken into account, which serves to ensure social protection simultaneously with the principle of equality in criminal legislation. In examples of judicial practice, the fact that the person who committed the crime is a woman was assessed as a mitigating circumstance in sentencing. At the end of the study, it was emphasized that when analyzing female criminality, it is necessary to take into account their physiological, psychological, and socio-legal characteristics, as well as the importance of taking into account the role of family stability and the upbringing of children in sentencing.*

Keywords: *female criminality, subject of crime, optional characteristics, criminal law, sentencing, gender equality, pregnancy, social factors, judicial practice, legal analysis*

Kirish

Odatda jinoyatlar sodir etilishining aksariyati erkaklar hissasiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda ayollarning ham jinoyatchiligi oshib borayotgani kuzatilmoqda. Umumiy holatga ko'ra, mamlakatimizda sodir etilayotgan jinoyatlarning 85–88 %i erkaklar ulushiga to'g'ri keladi. Ayollar tomonidan jinoyat sodir etilishi ko'pincha favqulodda holat sifatida ko'riladi hamda jazo tayinlashda qonunda va sud amaliyotida ayollarga nisbatan bir qancha yengilliklar mavjud. Shu sababli biz jinoyat subyektiining jinsiy belgisi sifatida aynan ayollar jinoyatlariga alohida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Jamiatda ayollarning rolini oshirish, ular faoliyat olib borayotgan sohalarni kengaytirish, mamlakatimizda ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. O'zbekiston milliy siyosatining markazida oilalar mustahkamligini ta'minlash, ayollar huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini kafolatlash kabi eng ezgu maqsadlar turadi. Mamlakatimizda gender tenglikka erishish borasida ham tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, o'tgan yili oliygohlarga qabul qilingan talabalarining 49 foizini qizlar tashkil etdi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetdi.

O'z navbatida, ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni yuksalishi bilan bir vaqtda, ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar soni ham oshib borishi ham kuzatilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi statistik ma'lumotlariga ko'ra, sudlar tomonidan ko'rib chiqilib, jazo tayinlangan shaxslar orasida ayollarning ulushi ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilda 3027 nafar (12,1 %), 2021-yilda 5040 nafar (12,6 %), 2022-yilda 6497 nafar (13 %), 2023-yilda 6466 nafar (15,2 %), 2024-yilda 7132 (13 %) nafar ayollarga nisbatan sud hukmi bilan jinoiy jazo tayinlangan (Abdurasulova, 2005).

Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar–sentyabr oylarida sodir etil-

gan jami jinoyatlarda ayollar ulushi 12,2 %ni tashkil qilgan. Bunda viloyatlar kesimida eng ko'p ayollar jinoyatchiligi ko'p sodir etilgan hududlar sifatida Farg'ona viloyatida (653 ta), Toshkent viloyatida (456 ta), Toshkent shahrida (771 ta) sodir etilgan. Eng kam ayollar jinoyatchiligi Sirdaryo (100 ta), Xorazm (104 ta) viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida (144 ta) sodir etilgan (Kuznetsova & Tyazhkova, 2002).

Metodlar

Ushbu tadqiqotda ilmiy tahlilning zamonaviy usullari, huquqiy nazariya va amaliyotda qo'llanadigan umumiy va xos ilmiy usullardan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi dissertatsiyaning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib tanlangan bo'lib, mantiqiy tahlil va umumlashma usuli, tarixiy-qiyosiy tahlil usuli, qiyosiy-huquqiy usul, normativ-huquqiy tahlil usuli, ilmiy tahlil va doktrinal yondashuv hamda tavsiyaviy modellashtirish usuli qo'llandi.

Natijalar

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida ayollar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarga nisbatan javobgarlikni qo'llashda bir qancha o'ziga xosliklar mavjud.

A. Toshpulatovning ta'kidlashicha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining bir qancha moddalarida ayollarning jinoiy javobgarligi masalasida erkaklarga nisbatan bir qancha yengilroq yondashuv mavjudligini kuzatish mumkin. Jumladan, Jinoyat kodeksi 50-moddasining to'rtinchi qismida uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga nisbatan qo'llanmasligi, oltinchi qismida esa ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilayotgan ayollarga tayinlanadigan jazo muddati ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lmasligi belgilangan. Jinoyat kodeksining 51-moddasida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayolga nisbatan tayinlanmasligi nazarda tutilgan. Shuningdek, Jinoyat kodeksining 72-modda-

sining yettinchi qismiga muvofiq, o'ta og'ir jinoyati uchun hukm qilingan, shuningdek, ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan erkaklarga nisbatan shartli hukm qo'llanmasligi belgilangan bo'lsa, bunday taqiq ayollarga nisbatan qo'llanmaydi.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksida homilador ayolning jinoyat sodir qilishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi, aksincha, homilador ayolga nisbatan jinoyat sodir etilishi jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanishi ham belgilangan. Xo'sh, bu normalar gender tenglik masalalari bo'yicha qanday tahlil qilinishi kerak? Tenglik ikkala jins vakillari uchun ham teng javobgarlikni nazarda tutmaydimi, degan savollar kelib chiqadi (Galakhova, 2008).

Ushbu savollarga javob berish uchun jinoyat javobgarlikda ayollarning o'rni masalasiga e'tibor qaratish lozim. Jinoyat huquqida ayol uchta jihatdan ko'rib chiqiladi. Birinchidan, ayol jinoyat subyekti sifatida, ikkinchidan, ayol jinoyat obyekti sifatida, uchinchidan, ayol jazo obyekti sifatida ko'rib chiqiladi.

Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligi jinoyat subyektlarini aniqlashda jinsga e'tibor qaratmaydi. Jinoyat kodeksining 17-moddasida jinoyat subyekti sifatida belgilangan yoshga yetganlik, jismoniy shaxs ekanlik va aqli raso-lik nazarda tutilgan. Ushbu mezonlarga javob bergan shaxs, jinsidan qat'iy nazar, jinoyat subyekti bo'lishi mumkin. Mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida faqat 99-modda, ya'ni onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishida faqat ayol kishi subyekt bo'lishi mumkinligi belgilangan.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarida ham faqat ayol kishi jinoyat subyekti hisoblanadigan normalar mavjud. Jumladan, Rossiya jinoyat kodeksining 106-moddasida (Karavaeva, 2017), Ukraina jinoyat kodeksining 117-moddasida (Abdurasulova, 2005), Qozog'iston jinoyat kodeksining 100-moddasida, Qirg'iziston jinoyat kodeksining 125-moddasida (Abdurasulova, 2005), Mol-

dova jinoyat kodeksi 147-moddasida (Lyubavina, 2014) onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Ko'rsatib o'tilgan davlatlar va mamlakatimiz jinoyat qonunchiligida ayolning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirganligi uchun yengillashtiruvchi javobgarlik belgilangan. V.A. Kazakova va S.M. Inshakovlar fikricha, bu jinoyatga yengillashtiruvchi javobgarlik o'rnatilishini sababi, onaning fiziologik holati va tug'ruq vaqtidagi ruhiy holati hisoblanadi (Komissarov et al., 2012).

V.B. Xatuyev esa aksincha, tug'ruq vaqtidagi fiziologik va emotsional holatlar barcha ayollar uchun xos bo'lib, onaning o'z chaqalog'ini o'ldirganligi uchun yengillashtirilgan javobgarlik belgilanishi jinoyat kodeksidagi tenglik prinsipi buzilishiga olib kelishini, aksincha, ojiz ahvoldagi shaxsning (chaqaloq) o'ldirilishi og'irlashtiruvchi holat hisoblanishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu sababdan ham u Jinoyat kodeksidagi onaning o'z chaqalog'ini o'ldirganligi uchun alohida normani chiqarib tashlash va bunday qilmishlarni odam o'ldirish jinoyati sifatida kvalifikatsiya qilishni taklif qilgan (Sundurov & Tarkhanov, 2009).

Biz V.B. Xatuyevning fikrlariga qo'shilmaymiz, chunki tug'ruq vaqtda ayolning kuchli emotsional holatini shakllantiruvchi sabablarda subyektiv va obyektiv omillarni ajratib ko'rsatish zarur. Subyektiv omillar sifatida shaxsiy xususiyatlar, masalan, uyatchanlik, atrofdagilarning fikriga bog'liqlik, jamiyatdagi salbiy munosabatdan qo'rqish kabi holatlarni keltirish mumkin. Nikohdan oldin jinsiy aloqalarga yo'l qo'yilmasligi, ayollik nomusi to'g'risidagi ijtimoiy normalar shaxsning ichki manfaatlari, ya'ni bolani dunyoga keltirish istagi va uni hammaning qoralashiga sababchi bo'lmaslik xohishi o'rtasida ziddiyat yuzaga kelishiga olib keladi.

Boshqa tomondan, obyektiv omillar ham ta'sirga ega. Masalan, yaqin qarindoshlar tomonidan boladan qutulishni talab qilish, homiladorlik muddati o'tib ketgani sababli

shifokorlarning abort qilishdan bosh tortgan holatlari shular jumlasidandir. Shu sababdan bunday qilmishlar uchun yengillashtiruvchi javobgarlik o'rnatilishi muhimdir.

Muhokama

Ayol jinoyat obyekti sifatida alohida tadqiq qilinishi lozim bo'lgan masala hisoblanadi. To'g'ri, inson jinoyat obyekti bo'lishi mumkin emas, degan qarashlar ham mavjud. Ammo bir qator jinoyatlar borki, aynan ayol kishi ekanligi uning jinoiy tajovuzi obyekti bo'lishiga sabab bo'ladi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 56-moddasida homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir etilishi jazoni og'irlashtiruvchi holat hisoblanadi. Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 97-moddasi ikkinchi qismi "b" bandi, 103-modda ikkinchi qismining "b" bandi, 103¹-moddaning ikkinchi qismi "a" bandi, 104-moddaning ikkinchi qismi "a" bandi, 105-moddaning ikkinchi qismi "b" bandi, 110-moddaning ikkinchi qismi "b" bandi, 114-modda, 115-modda, 126¹-moddaning beshinchi qismi "b" bandi, oltinchi qismi "a" bandi, 136-modda, 148-modda ikkinchi qismi, 235-modda ikkinchi qismining "d" bandida nazarda tutilgan jinoyatlarda tajovuz obyekti faqat ayol bo'ladi. Nima uchun qonun yuqorida ko'rsatib o'tilgan aksariyat qilmishlarda aynan homilador ayolga nisbatan jinoyat sodir etilishini jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida yoki maxsus qismi normasining og'irlashtiruvchi kvalifikatsiya qiluvchi belgisi sifatida belgilagan? Fikrimizcha, bu avvalo Konstitutsiya mazmunidan kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi belgilangan. Homiladorligi ayon bo'lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir etilishi nafaqat bitta shaxsga, balki tug'iladigan bolaga ham zarar yetkazishi mumkinligi sababli bunday jinoyatlar og'irlashtiruvchi holatlar hisoblanadi.

Tadqiqotimiz jinoyat subyekti fakultativ belgilariga oid bo'lganligi sababli aynan ayol-

ning jazo obyekti bo'lish masalasiga chuqurroq yondashamiz.

Jinoyat kodeksi Umumiy qismida ayollarga nisbatan jazo tayinlashda bir qancha o'ziga xos xususiyatlar aks ettirilgan. Jumladan:

– 45¹-moddada majburiy jamoat ishlari jazosi homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga qo'llanmasligi belgilangan;

– 46-moddada axloq tuzatish ishlari homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga qo'llanmasligi belgilangan;

– 50-modda to'rtinchi qismida ayollarga uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanmasligi, oltinchi qismida esa ozodlikdan mahrum etishga hukm qilinayotgan ayollarga ushbu kodeks Maxsus qismining tegishli moddasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum etish eng ko'p muddatining uchdan ikki qismidan ortiq bo'lishi mumkin emasligi belgilangan; sakkizinchi qismida ayollarga nisbatan jazoni o'tash koloniyalarning o'ziga xos xususiyatlari; o'ninchi qismida esa ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyat sodir etganlik, ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etganlik va qasddan uncha og'ir bo'lmagan jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazo homilador ayollarga va uch yoshga to'lmagan bolalari bor ayollarga nisbatan tayinlanmasligi belgilangan;

– 51-moddada umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi ayollarga nisbatan tayinlanishi mumkin emasligi mustahkamlangan;

– 55-moddada homilador ayolning jinoyat sodir etishi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida, 56-moddada esa homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan;

– 72-moddada shartli hukmni qo'llashdagi cheklovlar ayollarga nisbatan tatbiq etilmasligi belgilangan;

– 75-moddada homiladorlik va tug'ish ta'tili berilishi munosabati bilan ayollar in-

tizomiy qismga jo'natish va majburiy jamoat ishlari hamda axloq tuzatish ishlari jazosini o'tashdan ozod qilinishi nazarda tutilgan.

Nima uchun qonun ayollarga nisbatan bunday normalarni belgilagan? K. Mirshaeva ta'kidlashicha, "Erkaklar bilan ayollar o'rtasidagi jinoyatchilikdagi muhim farq ko'proq zo'rlik ishlatib sodir qilinadigan jinoyatlarda (odam o'ldirish, talonchilik, bosqinchilik qilish, qurol ishlatib ashaddiy bezorilik qilish) yaqqol ko'rinadi. Bunday holatda ham ayollar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlarni biologiyalashtirishga, ya'ni ayollar jismonan erkaklarga nisbatan zaif bo'lganligi uchun kam jinoyat sodir etadilar, – deb asoslashga urinadilar. Ammo bunday yondashuv bir tomonlamadir. Ayollar erkaklarga nisbatan jismoniy kuch jihatdan orqada bo'lsa-da, ularning zo'rlik ishlatib sodir qilinadigan jinoyatlardagi uncha ko'p bo'lmagan hissasini an'anaviy urf-odatlar asosidagi tarbiya bilan bog'lab tushuntirish kerak. Bundan tashqari, ayollarda hissiy holat, ta'sirchanlik ma'lum bir fiziologik holatda kuchli bo'ladi. Bunday holat qonunchilikda ham e'tiborga olinadi. Bundan tashqari, ayollar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar jinoyat motivi bilan ham farqlanadi. Ular, birinchi navbatda, rashk, o'ch olish, hasadgo'ylik, jabrlanuvchidan qutulishga harakat qilishlarida namoyon bo'ladi. Ayollar tomonidan sodir qilinadigan ko'pgina jinoyatlar jabrlanuvchining g'ayriqonuniy xatti-harakati oqibatida kelib chiqadi" (Mirshaeva, 2022).

Ayollar jinoyatchiligini tadqiq qilgan olimlar, ularga nisbatan javobgarlik va jazo masalasidagi o'ziga xosliklar yuzasidan bir qancha sabablarni keltirishgan. Jumladan, T.P. Lugovenko ayollar jinoyatchiligi erkaklar jinoyatchiligidan tubdan farq qilishini, xususan, sodir etilgan jinoyatlar soni, jinoyat qilmishining xususiyati va ijtimoiy sharoit o'zgarishi bilan jinoyat turi va xarakteriga ta'siri borligini ta'kidlagan bo'lsa (Lugovenko, 2001), V.V. Luneyev ayol organizmining de-

mografik, psixologik va psixofiziologik xususiyatlari ularning jinoyat sodir etishiga sabab bo'ladi va, o'z navbatida, jazo tayinlashda ham bu xususiyatlar inobatga olishini kerakligini ta'kidlagan (Luneev, 2009), A.M. Pastuxova va Y.A. Tronina esa ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni haqida tarixan shakllangan qarashlar, ularning ijtimoiy funksiyasi va roldan kelib chiqib jazo tayinlashda o'ziga xosliklar mavjudligini (Pastukhova & Tronina, 2007), M.L. Podolyuk ayollarning jamiyatdagi o'rnini hisobga olgan holda yondoshish zarurligini (Podolyuk, 2010), Y.G. Telegina ma'naviy va psixologik omillarning ayollar jinoyatchiligini kelib chiqish sabablari sifatida ko'rsatib, jazo tayinlashda ham ushbu omillarga tayanish zarurligini (Telegina, 2007), G.A. Varapayeva ayollar jinoyatchiligi oilalar mustahkamligiga jiddiy ta'sir qilishi, ayollarga nisbatan jazo tayinlashda uning oilani saqlab qolish imkoniyatlaridan kelib chiqish zarurligini ta'kidlagan (Varapayeva & Vitko, 2008).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha mualliflarning fikriga qo'shilamiz, chunki jinoyatlarning sabablari turlicha bo'lganligi bilan, umumiy jihatdan olganda ayollarning jinoyat sodir etishi sabablarini tahlil qilish va ularga nisbatan jazo tayinlashda ularning avvalo oila mustahkamligi, farzandlar tarbiyasidagi o'rni hisobga olinishi zarur.

Tadqiqot davomida o'rganilgan 500 ta sud hukmlarida yosh, jins va sog'liq bilan bog'liq fakultativ belgilar 39 %ni tashkil qilgan. Ushbu 39 % fakultativ belgilarni o'zini alohida tadqiq qilamiz. Bunda ushbu turdagi barcha hukmlarning 40,6 %ida jinoyatning ayollar tomonidan sodir etilganligi jazo tayinlashda hisobga olingan, ya'ni barcha hollarda jinoyatni sodir etgan subyekt ayol ekanligi jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholangan. Sud amaliyotidan bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

Sudda aniqlanishicha, M.T. 2024-yil mart oyining boshlarida "Redmi 9A" rusumli uyali telefon apparatini sotib olib, ushbu uyali tele-

fon orqali “Telegram” ijtimoiy tarmog’iga ulanib, +XXX XX XXX-XX-XX abonent raqamiga bir nechta profil yaratgan. Mazkur profillari orqali “M”, “X.n”, “T.u” nomli kanallar tashkil qilgan va ularga doimiy ravishda turli xil diniy mazmundagi kitoblarning “pdf” shaklidagi nusxalari, notanish shaxslarning turli mavzulardagi ma’ruzalari, o’zbek tilida kuylangan nashida-qo’shiqlar, shuningdek, “O’zbekiston islom harakati – O’IH” (“Turkiston islom harakati – TIH”) terroristik tashkiloti yetakchisi Tohir Yo’ldoshning “O’zbekiston islomiy harakatining tarixi, aqidasi va kelajakdagi rejalari” haqidagi “Jundulloh” jihodiy studiyasiga bergan intervyulari va boshqa diniy materiallarni joylashtirib, ularni tarmoq foydalanuvchilariga tarqatgan.

Dastlabki tergov organi tomonidan M.T.ning harakatlari O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 159-moddasi 1-qismi va 244¹-moddasi uchinchi qismining “g” bandi bilan kvalifikatsiya qilingan. Sud M.T.ning harakatlari dastlabki tergov organi tomonidan to’g’ri kvalifikatsiya qilingan deb hisoblagan bo’lsa-da, sudlanuvchi M.T.ning ayolligi jazoni yengillashtiruvchi holat deb topilgan holda, uni jamiyatdan ajratgan holda ham axloqan tuzatish imkoni mavjud degan xulosaga kelgan. Sud M.T.ni hozirgi kunda qilgan ishidan chin ko’ngildan pushaymon ekanligini, ayolligini hisobga olib, Jinoyat kodeksining 57-moddasini qo’llab, unga ayblanayotgan modda sanksiyasida nazarda tutilgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi eng kam miqdoridan ham kamroq tayinlanishini qaror qilgan.

Garchi Jinoyat kodeksi 159-moddasi 1-qismi sanksiyasida bazaviy hisoblash miqdorining olti yuz baravarigacha jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash, yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish, 244¹-moddasi uchinchi qismida esa besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi nazarda tutilgan bo’lsa-da, sud M.T.ga Jinoyat kodeksi 159-moddasi 1-qismi bilan 3 yil ozodlikdan mahrum qilish,

244¹-moddasi uchinchi qismining “g” bandi bilan JK 57-moddasini qo’llab, 3 yil 3 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlagan. Jinoyat kodeksi 59-moddasi uchinchi qismi tartibida tayinlangan jazolarni qisman qo’shish yo’li bilan uzil-kesil 3 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan (Kokand City Court, n.d.).

Xulosa

Ayollarga nisbatan jazo tayinlashdagi o’ziga xos xususiyatlar tenglik prinsipiga zid kelmaydimi, degan savollar olimlar o’rtasida bahslarga sabab bo’lgan mavzulardan hisoblanadi. Masalan, D.T. Karamanukyan fikricha, umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining ayollarga nisbatan qo’llanishi mumkin emasligi, erkaklarga nisbatan diskriminatsiya hisoblanadi (Karamanyukyan, 2019). Ushbu olim shuningdek, jinoyat-ijroiya qonunchiligida ayollarning ozodlikdan mahrum qilish jazosini o’tash rejimidagi erkaklarga nisbatan yengilliklarni ham diskriminatsiya deb hisoblaydi.

K.V. Dyadyun ayollarga nisbatan jinoiy javobgarlikning o’ziga xosligi har doim ham tenglik prinsipi mazmuniga mos kelmasligini ta’kidlasa-da, umuman olganda, ayollarga nisbatan yengillashtiruvchi javobgarlik bo’lishini ma’qullagan (Dyadyun, 2017).

Biz D.T. Karamanukyan fikrlariga qo’shilmaymiz, chunki erkak va ayol o’rtasida jismoniy va emotsional farqlar mavjudligi sababli ikkala jins vakillariga nisbatan jazo tayinlashda ham o’ziga xos yondashuvlar bo’lishi kerak. Bundan tashqari, ayolning farzand tarbiyasidagi o’rni, jamiyatdagi ayollarning tutgan o’rniga nisbatan mavjud bo’lgan o’ziga xos cheklovchi qarashlar ham, ayollarni qo’shimcha himoya qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotchi I. Muslimov JK 55-moddasi birinchi qismining “z” bandida nazarda tutilgan “homilador ayolning jinoyat sodir etishi” deb nomlangan yengillashtiruvchi holatni “homiladorlik holati” deb nomlashni taklif qilgan (Muslimov, 2025).

Homiladorlik o'z-o'zidan ayollarda mavjudligi sababli mazkur taklif sud amaliyoti uchun jiddiy ahamiyat kasb etmaydi, deb hisoblaymiz. Umuman olganda, sud hukmlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ayollarga nisbatan jazo tayinlashda barcha holatlarda jinoyat subyektining ayol ekanligi maxsus qism sanksiyasida nazarda tu-

tilgan muqobil jazolardan yengilrog'ini qo'llash yoki JK 57-moddasini qo'llab, maxsus qism moddasida nazarda tutilgan mazkur jinoyat uchun belgilangan jazoning eng kam qismidan ham kamroq yoki shu moddada nazarda tutilmagan boshqa yengilroq turdagi jazoni tayinlashga sabab bo'lgan.

REFERENCES

1. Abdurasulova, Q. R. (2005). *Jinoyatning maxsus subyekt* [Special subject of the crime]. TSIL Publ.
2. Chuchaev, A. I. (Ed.). (2013). *Ugolovnoe pravo Rossiyskoy Federatsii* [Criminal law of the Russian Federation]. Moscow: INFRA-M.
3. Dyadyun, K. V. (2014). Sovershenie prestupleniya v otnoshenii beremennoy zhenshchiny kak obstanovka, otyagchayushchaya nakazanie [Committing a crime against a pregnant woman as an aggravating circumstance]. *Advocate*, (6), 38–42.
4. Dyadyun, K. V. (2017). Naznachenie nakazaniya zhenshchinam s tochki zreniya printsipov ravenstva grazhdan pered zakonom, gumanizma i spravedlivosti [Imposing punishment on women from the perspective of the principles of equality before the law, humanism, and justice]. *Leningrad Law Journal*, (2), 196–207.
5. Galakhova, A. V. (2008). Subyekt prestupleniya i ego tolkovanie v sudebnoy praktike [The subject of a crime and its interpretation in judicial practice]. *Russian Justice*, 2, 38–42.
6. Karamanyukyan, D. T. (2019). Zakonodatel'nye predposylki gendernoy diskriminatsii v Rossiyskoy Federatsii [Legislative preconditions for gender discrimination in the Russian Federation]. *Bulletin of the Omsk Law Academy*, (1), 6–12.
7. Karavaeva, Y. S. (2017). *Spetsialnyy subyekt prestupleniya: kriminologo-pravovoy podkhod* [Special subject of the crime: Criminological and legal approach] [Candidate dissertation] (p. 198). Omsk.
8. Komissarov, V. S., Krylova, N. E., & Tyazhkova, I. M. (Eds.). (2012). *Ugolovnoe pravo Rossiyskoy Federatsii* [Criminal law of the Russian Federation]. Moscow: INFRA-M.
9. Kuznetsova, N. F., & Tyazhkova, I. M. (2002). *Kurs ugolovnogo prava. Obshchaya chast* [Criminal law course. General part, vol. 1: The theory of crime, p. 166]. A Mirror.
10. Lugovenko, T. P. (2001). *Lichnost zhenshchin, sovershayushchikh prestupleniya v sfere ekonomiki* [The personality of women committing crimes in the field of economics] (p. 284). Moscow: Law Book.
11. Luneev, V. V. (2009). *Kharakteristika i prichiny prestupnosti zhenshchin* [Characteristics and causes of female criminality]. In I. B. Mikhaylovskaya (Ed.). *Aktualnye problemy ugolovnogo prava i ugolovnogo protsessa: Tr. Instituta gosudarstva i prava Rossiyskoy akademii nauk* [Current issues of criminal law and criminal procedure: Proceedings of the Institute of State and Law of the Russian Academy of Sciences]. Moscow: Institute of State and Law of the Russian Academy of Sciences.
12. Lyubavina, M. A. (2014). *Subyekt prestupleniya* [The subject of a crime]. St. Petersburg Law Institute.
13. Mirshaeva, K. O. (2022). Ayollar jinoyatchiligi tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyati [The concept of female criminality and its specific features]. *Journal of Legal Studies*, (1), 74.
14. Muslimov, I. T. (2025). *Sudlar tomonidan jazoni yengillashtiruvchi holatlarni hisobga olgan holda jazo tayinlash muammolari* [Problems of sentencing considering mitigating circumstances by courts] [Doctoral dissertation]. TSUL Publ.

15. Pastukhova, A. M., & Tronina, E. A. (2007). *Zhenskaya prestupnost [Female criminality]* (pp. 299–300). Perm University Press.
16. Podolyuk, M. L. (2010). Sotsialnoe protivostoyanie mezhdru rolyami i funktsiyami zhenshchin v sovremennom obshchestve (zhenskaya prestupnost) [Social confrontation between the roles and functions of women in modern society (female criminality)]. *Law: Theory and Practice*, (6), 37–40.
17. Kokand City Court. (n.d.). *Jinoyat ishlari bo'yicha 1-1503-2402/1006-sonli jinoyat ishi bo'yicha hukm [Verdict in criminal case No. 1-1503-2402/1006.]*. <https://public.sud.uz/report/CRIMINAL>
18. Sundurov, F. R., & Tarkhanov, I. A. (Eds.). (2009). *Ugolovnoe pravo Rossii [Criminal law of Russia]* (p. 751). Moscow: Statute.
19. Telegina, E. G. (2007). *Zhenskaya prestupnost v kontekste deviantnogo povedeniya [Female criminality in the context of deviant behavior]* (pp. 171–181). Saratov: Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of Russia.
20. Varapayeva, G. A., & Vit'ko, V.V. (2008). *Sotsial'nye faktory zhenskoy prestupnosti [Social factors of female criminality]* [Conference presentation]. Mezhdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii [International scientific and practical conference]. Barnaul: AAEP.

Kelib tushgan / Получено / Received: 22.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 10.12.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.4./DABM5309

UDC: 343.22:004.8(045)(575.1)

JINOYAT SUBYEKTI SIFATIDA SUN'IY INTELLEKT JAVOBGARLIGI MASALASI

Nurmanov Xolbek Rahmatilla o'g'li,

Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0001-2582-7720

e-mail: xolbek.nurmanov123@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada muallif tomonidan jinoyatni sodir etish subyekti sifatida sun'iy intellekt javobgarligi masalasi o'rganiladi, jumladan, ushbu masalada yuridik fanda mavjud fikrlar, g'oyalar, konsepsiyalar, ilmiy munozaralar atroflicha ko'rib chiqiladi. Milliy qonunchilikda hozirgi kunda kiberjinoyatlarni sodir etish subyekti sifatida sun'iy intellekt qilmishi uchun bevosita jinoiy javobgarlik choralari belgilanmagan. Ayni chog'da rivojlangan xorijiy mamlakatlar (xususan, AQSh, Buyuk Britaniya) fan va amaliyotida, maxsus qonunlarida sun'iy intellekt javobgarligiga oid bir qator huquqiy qoidalar shakllantirilgan (jumladan, uning bevosita yoki bilvosita javobgarligi shakllari haqida) bo'lib, shu bois ushbu o'ziga xos subyektning qilmishi yuzasidan javobgarlikni belgilashda jahon amaliyotida allaqachon shakllanib ulgurgan bir qator shart va talablarni inobatga olish zarur degan xulosaga kelingan. Buning uchun muallif tomonidan milliy fuqarolik, jinoyat va boshqa qonun hujjatlariga tegishli qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish, shuningdek, sun'iy intellektdan foydalangan holda sodir etilgan qilmishlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilishga oid tegishli amaliy qoidalarni ishlab chiqish yuzasidan ilmiy asoslantirilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, iqtisodiyot, zarar, javobgarlik, kiberjinoyat, delikt, kompyuter axboroti

ВОПРОС ОТВЕТСТВЕННОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК СУБЪЕКТА ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Нурманов Холбек Рахматилла угли,

самостоятельный соискатель

Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В настоящей научной статье автором исследуется проблема ответственности искусственного интеллекта как субъекта совершения преступления, в частности, всесторонне анализируются существующие в юридической науке мнения, идеи, концепции и научные дискуссии по данному вопросу. На основе рассмотрения указанных научных подходов и теоретических позиций автор приходит к выводу о том, что в действующем национальном законодательстве на сегодняшний день не установлены меры прямой уголовной ответственности за деяния, совершённые искусственным интеллектом как субъектом киберпреступлений. В то же время в научной и правоприменительной практике развитых зарубежных государств (в частности, США и Великобритании), а также в их специальном законодательстве уже сформирован ряд правовых положений, касающихся ответственности искусственного интеллекта, включая формы его прямой и косвенной ответственности. В связи

с этим делается вывод о необходимости учитывать при определении ответственности за деяния данного специфического субъекта совокупность условий и требований, уже сложившихся в мировой практике. В целях реализации данного подхода автором выдвинуты научно обоснованные предложения и рекомендации, направленные на внесение соответствующих дополнений и изменений в национальные гражданскую, уголовную и иные отрасли законодательства, а также на разработку практических правил, касающихся правильной квалификации деяний, совершённых с использованием искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, экономика, вред, ответственность, киберпреступление, деликт, компьютерная информация

THE ISSUES OF LIABILITY OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A SUBJECT OF CRIME

Nurmanov Kholbek Rahmatilla ugli,

Independent Researcher at Tashkent State University of Law

Abstract. *In this scientific article, the author examines the issue of the liability of artificial intelligence as a subject of crime, including the opinions, ideas, concepts, and scientific discussions existing in legal science on this issue. Currently, national legislation does not establish direct criminal liability measures for the act of artificial intelligence as a subject of committing cybercrimes. At the same time, in the science and practice of developed foreign countries (in particular, the USA and Great Britain), a number of legal provisions regarding the liability of artificial intelligence have been formed in special laws (including the forms of its direct or indirect liability); therefore, it was concluded that when determining the liability for the actions of this specific subject, it is necessary to take into account a number of conditions and requirements that have already been formed in world practice. For this purpose, the author put forward scientifically substantiated proposals and recommendations for making appropriate additions and amendments to national civil, criminal, and other legislation, as well as for developing appropriate practical rules for the correct qualification of acts committed using artificial intelligence.*

Keywords: artificial intelligence, economy, damage, liability, cybercrime, delinquency, computer information

Kirish

Dunyoda sun'iy intellekt sohasidagi ishlanmalar, ularga nisbatan intellektual mulk huquqi va mazkur mahsulotlarning huquqiy tabiati, xususan, yuridik javobgarligi masalalari kun sayin jiddiy muammoga aylanib bormoqda. Jumladan, 2015- va 2018-yilda sun'iy intellekt negizidagi avtopilot boshqaruvida "Tesla" avtomashinasi avtohalokatni sodir etishi insonlarning hayotdan ko'z yumishiga olib keldi (Shepardson, 2017). Shuningdek, 2015-yilda manipulyator roboti harakati "Volkswagen" avtomobil zavodida ishchi o'limiga sabab bo'ldi (The Guardian, 2015), 2020-yilda Liviyada harbiy uchuvchisiz boshqariladigan dron mustaqil ravishda, operator

ishtirokisiz, insonni izlab topdi va uni nobud qildi (Jha, 2020). Mazkur voqealar amalda sun'iy intellekt sohasidagi huquqiy javobgarlik masalalari tezkor sur'atlar bilan odimlab borayotgan texnologik inqilobning shiddatiga mos kela olmay qolayotgani tufayli sun'iy intellekt sohasidagi mahsulotlar va ularga bog'liq zamonaviy texnologiyalar (aqlli shahar, smart-kontrakt, raqamli iqtisod, blokcheyn va h.k.) ishlab chiqarilishi barobarida yuzaga kelayotgan chaqiriqlar, munosabatlar an'anaviy huquq normalari va institutlarni to'liq qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Jinoyat tarkibi obyektiv tomonining asosiy majburiy tarkibiy qismlaridan biri bu

aniq harakatning haqiqiy sodir etilishidir. Bugungi kunda sun'iy intellekt "harakatlarni" bajarishga qodir va bu nafaqat "kuchli" sun'iy intellektga, balki pastroq rivojlangan texnologiyalarga ham tegishli. Mashina (masalan, sun'iy intellekt roboti) o'zining gidravlik qo'li yoki boshqa moslama bilan harakat qilsa, buni harakat deb hisoblash mumkin. Va bu faqat harakat mashinaning ichki hisob-kitoblari natijasi bo'lgan holatlarga emas, balki mashina to'liq inson tomonidan boshqarilsa ham. Shunga ko'ra, hatto zaif sun'iy intellekt bilan jihozlangan mashinalar ham, motivlar va sabablardan qat'i nazar, harakatlarni amalga oshirishning haqiqiy qobiliyatiga ega (Hallevy, 2015).

Metodlar

Tadqiqotda mantiqiy, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, aniq sotsiologik, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, statistik ma'lumotlar tahlili, qonun hujjatlarini sharhlash, qonunni qo'llash amaliyotini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

SI sohasi juda ham murakkab va keng qamrovli bo'lib axborot texnologiyalaridan tashqari qator sohalar: psixologiya, neyrofiziologiya, falsafa, transgumanizm va boshqalar bilan chambarchas bog'liq. Sun'iy intellekt ham boshqa axborot texnologiyalari fanlari kabi matematik apparatdan foydalanadi. Uning uchun falsafa va robototexnika alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sun'iy intellektdan foydalanishning keng imkoniyatlari yaqin kelajakda muayyan faoliyat sohalaridagi mutaxassislarni almashtirish to'g'risida so'z yuritishga imkon beradi. Biroq shaxslararo munosabatlarda ustunlik qiladigan sohalarda robotlar insonlarni to'liq almashtira olmaydi, chunki ularda ruhiyat, his-tuyg'u, fikrlashning moslashuvchanligi, muammolarni hal qilishga individual yondashish qobiliyati, muammo, suhbatdoshning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish qobiliyati yo'q.

Sun'iy intellektni talqin qilishning bunday yondashuvi, birinchi navbatda, olimlar va

amaliyotchilarning diqqatini jalb qiladigan mavjud "elektron shaxs" konsepsiyasiga asoslanadi (Popova, 2019; Rolinson, 2018; Kharitonova, 2019). Agar biz haqiqatan ham sun'iy intellektning avtonomiyasidan, uning xatti-harakatlaridan xabardor bo'lish qobiliyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, unda beixtiyor uning javobgarligi va shunga mos ravishda jamiyatdagi huquqiy maqomi va rolini aniqlash masalasi tug'iladi.

Huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida tan olinishi uchun shaxsga huquqiy maqom (huquq layoqati, muomala layoqati va delikt layoqati) berilgan bo'lishi kerak. Fuqarolik huquqi mantig'iga amal qiladigan bo'lsak, jismoniy va yuridik shaxslarning o'z fuqarolik huquqlari, o'z xohish-irodasi va o'z manfaatlarini ko'zlashi tabiiy hol. Bu holatda iroda va qiziqish sun'iy intellekt faoliyatining ongli fikrlash jarayonlari, shuningdek, uning huquqiy maqomini tan olish omillarini belgilab beradimi, degan savol yuridik fan doirasidan tashqarida bo'lib, jiddiy, keng qamrovli sotsiologik, psixologik va falsafiy tadqiqotlarni talab qiladi (Arkhipov, 2017; Ponkin, 2018; Rizhenkov, 2014).

Bu yerda hech qanday shubha tug'dirmaydigan narsa subyektiv huquqning maqsadi va sharti bo'lgan huquqiy manfaatning o'ziga xosligidir (Bratus, 1950). Sun'iy intellekt mustaqil manfaatga ega emas, balki inson tomonidan o'z ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan kompyuter dasturidir, degan xulosaga kelishimizga imkon beradi. Shunga ko'ra, faqat sun'iy intellektdan foydalanyotgan yoki unga ega bo'lgan shaxslarning manfaatlari himoya doirasiga kiradi.

Bu sohada G. Hallevy, J. Buyers, G. Hallevy, Piter Asaro, N. Nevejans, F.V. Ujov, L. Shvars, J.K.C. Kingston, B. Hamroqulov, D.J. Gunkel, C.G. Debessonnet, Y.H. Weng, S. Solaiman, P. Freitas, D. Levy, Y. Benhamou, G. Calabresi, A.D. Melamed, S. Jenny, R.S. Gruner, F. Malle, M. Scheutz, J.L. Austerweil., M. Decker, M. Gutmann kabi olimlarning ilmiy qarashlarini aytib o'tish darkor.

Natijalar

Gabriel Xollivi sun'iy intellekt mahsulotlarini javobgarlikka tortish imkoniyati masalasini muhokama qilar ekan, huquqbuzarlikning subyektiv tomonining mavjudligi masalasi asosiy masala bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi (Hallevy, 2016).

Shu sababli sun'iy intellekt mahsulotini o'z harakatlari uchun qonuniy javobgarlikka tortish imkoniyati masalasi bugungi kunda juda katta muhokamalarga sabab bo'lmoqda va sun'iy intellekt mahsulotining huquqiy maqomini aniqlash masalasi bilan bevosita bog'liq.

Наиболее характерно это для тактики задержания разыскиваемого, а также сопряжённых с ним действий – изъятия оружия, уличающих предметов и документов, сопровождения лица в служебное помещение, а также отчасти фиксации обстоятельств задержания разыскиваемого. Применительно именно к этим действиям вырабатывается тактика задержания разыскиваемого преступника, соответствующая конкретной обстановке. Однако собственно тактические рекомендации касаются прежде всего действий по физическому задержанию разыскиваемого преступника. Это относится и к розыску и задержанию вооружённых лиц, совершивших особо тяжкие преступления (Dubovets, 2003, p. 56).

На наш взгляд, в юридической литературе обоснованно отмечается, что тактика задержания разыскиваемого преступника имеет определённый процессуальный порядок. Сущность тактики задержания разыскиваемого преступника носит многогранный характер, и в юридической ли-

тературе встречаются различные мнения учёных-процессуалистов и криминалистов (Smushkin, 2005, p. 42). Вместе с тем все они сходятся во мнении о необходимости совершенствования тактики задержания разыскиваемых преступников.

Таким образом, задержание разыскиваемого преступника представляет собой единый, непрерывный процесс, в рамках которого негласные оперативно-розыскные методы создают условия для эффективного и безопасного применения гласных криминалистических тактических приёмов и процессуальных норм. Успех расследования в целом во многом зависит от того, насколько профессионально и слаженно действуют сотрудники на стыке этих двух важнейших направлений правоохранительной деятельности.

С учётом анализа правового регулирования задержания разыскиваемого обвиняемого с научной позиции представляется, что понятие «задержание разыскиваемого обвиняемого» должно охватывать его правовую природу, содержание, цели, а также круг субъектов, осуществляющих розыск и правомочных производить задержание. Уяснение сущности указанных элементов позволяет всесторонне охарактеризовать данную меру процессуального принуждения в отношении задержанного разыскиваемого обвиняемого.

Заключение

Таким образом, анализ позиций относительно совершенствования тактики задержания разыскиваемого позволяет разработать оптимальный алгоритм применения тактических приёмов задержания обвиняемого, находящегося в розыске. С учётом существующих тактических особенностей задержания разыскиваемых преступников выделим следующие цели применения данной тактики в деятельности правоохранительных органов: минимизация возможности повторного уклонения от органов предварительного

следствия и обеспечение принципа неотвратимости наказания.

С учётом изложенного можно предложить следующее определение тактики задержания разыскиваемого преступника: это алгоритм применения специальных приёмов процессуального принуждения, состоящих в кратковременном ограничении свободы разыскиваемого сотрудника службы уголовного розыска или иного правоохранительного органа на основе

имеющегося розыскного производства.

В заключение следует отметить, что для повышения эффективности борьбы с преступностью необходимо дальнейшее совершенствование тактики задержания разыскиваемых преступников, а также внедрение в данную сферу тактических приёмов задержания с использованием информационно-цифровых технологий, применяемых сотрудниками правоохранительных органов.

REFERENCES

1. Ageev, O. A. (2011). *Kriminalisticheskoe obespechenie zaderzhaniya lits, podozrevaemykh v sovershenii prestupleniy v sfere ekonomiki* [Forensic support for the detention of persons suspected of committing economic crimes]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Tyumen.
2. Artemova, V. V., & Samolaeva, E. Yu. (2016). *Zaderzhanie litsa po podozreniyu v sovershenii prestupleniya v usloviyakh reformirovaniya sovremennogo zakonodatelstva* [Apprehension of a person suspected of committing a crime under the reform of modern legislation]. *Bulletin of Moscow State Regional University*, (3), 73–80.
3. Babakova, M. A. (2010). *Problema rozyska pri rassledovanii prestupleniy v sfere vysokikh tekhnologiy* [The Problem of Detection in Investigating High-Tech Crimes]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Saratov.
4. Dubovets, G. K. (2003). *Organizatsiya deyatelnosti organov vnutrennikh del po rozysku i zaderzhaniyu vooruzhennykh lits, sovershivshikh osobo tyazhkiye prestupleniya* [Organization of the activities of internal affairs agencies in the search and detention of armed persons who have committed particularly serious crimes]. [Abstract of Doctoral Dissertation]. Moscow.
5. Dubovets, G. K. (2003). *Organizatsiya deyatelnosti organov vnutrennikh del po rozysku i zaderzhaniyu vooruzhennykh lits, sovershivshikh osobo tyazhkiye prestupleniya* [Organization of the activities of internal affairs agencies in the search and detention of armed persons who have committed particularly serious crimes]. [Abstract of Doctoral Dissertation]. Moscow.
6. Gordeev, S. N. (2016). *O sushchnosti rozyska v kontekste borby s prestupnostyu: teoreticheskiy analiz* [On the essence of investigation in the context of crime prevention: a theoretical analysis] *Russian Investigator*, (2), 45–50.
7. Hametova, A. R. (2016). *Nekotorye aspekty rozyska i zaderzhaniya podozrevaemogo (obvinyaemogo)* [Some aspects of the search and detention of a suspect (accused)]. *Current Problems of the State and Society in the Field of Ensuring the Rights and Freedoms of Man and Citizen*, 19(4), 201–205.
8. Jabborov, Z. K. (2019). *Sovershenstvovanie praktiki primeneniya ugolovno-pravovykh norm, kasayushchikhsya prichineniya vreda pri zaderzhanii litsa, sovershivshego obshchestvenno opasnoe deyaniye (na primere deyatel'nosti organov vnutrennikh del)* [Improving the practice of applying criminal law norms concerning the causing of harm during the detention of a person who committed a socially dangerous act (Based on the activities of internal affairs bodies)]. [Doctoral Dissertation] (52 p.). Tashkent.
9. Karimova, D. E. (2018). *Sovershenstvovanie vzaimodeystviya sledovatelya organov vnutrennikh del s podrazdeleniyami ugolovnogo rozyska* [Improving the interaction of investigators of internal affairs bodies with criminal investigation units]. [Doctoral Dissertation]. Tashkent.

10. Kovtun, N. N., & Kuznetsov, A. P. (2004). Sudebnyy kontrol zakonnosti i obosnovannosti zaderzhaniya podozrevaemogo [Judicial review of the legality and validity of the detention of a suspect]. *Russian Judge*, (7), 36.
11. Krotov, D. N. (2015). Pravovye aspekty fakticheskogo zaderzhaniya [Legal aspects of actual detention]. *Bulletin of Bryansk State University*, (3), 168–170.
12. Long, V. T. (2016). *Organizatsionnye i takticheskie osnovy zaderzhaniya pri rassledovanii prestupleniy v Sotsialisticheskoy Respublike Vyetnam i Rossiyskoy Federatsii* [Organizational and tactical principles of detention during crime investigations in the Socialist Republic of Vietnam and the Russian Federation]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Moscow.
13. Matchanov, A. A. (2005). *Osobennosti zaderzhaniya obvinyaemogo, nakhodyashchegosya v rozyske* [Peculiarities of detention of a wanted defendant]. [Monograph]. Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
14. Matchanov, A. A. (2014). *Kriminalisticheskaya taktika zaderzhaniya razyskivaemykh prestupnikov* [Criminalistic tactics of apprehending wanted criminals]. [Monograph]. Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
15. Matchanov, A. A. (2019a). *Tsifrovye dokazatelstva v rassledovanii prestupleniy v dosudebnom proizvodstve* [Digital evidence in the investigation of crimes in pre-trial proceedings] (146 p.). Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.
16. Matchanov, A. A. (2019b). *Ugolovno-protsessualnye i kriminalisticheskie aspekty sovershenstvovaniya rozyska lits, sovershivshikh prestupleniya* [Criminal procedural and forensic aspects of improving the search for persons who committed crimes]. [Doctoral Dissertation] (65 p.). Tashkent.
17. Melnikov, V. Yu. (2004). *Zaderzhanie podozrevaemogo* [Suspect detention]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Krasnodar.
18. Nasiriddinov, F. Z. (2001). *Priostanovlenie predvaritelnogo sledstviya v sluchayakh neustanovleniya litsa, podlezhashchego privilecheniyu k uchastiyu v ugolovnom dele v kachestve obvinyaemogo* [Suspension of a preliminary investigation in cases where the person to be brought to participate in a criminal case as an accused has not been identified]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Tashkent.
19. Pavlov, A. V. (2009). *Zaderzhanie obvinyaemogo, nakhodyashchegosya v rozyske* [Detention of a wanted defendant]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Omsk.
20. Payziev, A. M. (2022). *Sovershenstvovanie taktiki zaderzhaniya podozrevaemogo po ugolovnym delam, svyazannym s nezakonnym oborotom narkoticheskikh sredstv* [Improving tactics for detaining suspects in criminal cases related to illegal drug trafficking]. [Doctoral Dissertation]. Tashkent.
21. Petrovskiy, V. G. (1999). *Organizatsionnye i takticheskie osnovy provedeniya operativno-rozysknykh meropriyatiy i sledstvennykh deystviy pri zaderzhanii podozrevaemogo* [Organizational and tactical principles for conducting operational-search activities and investigative actions during the detention of a suspect]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Moscow.
22. Popkov, N. V. (2007a). *Zaderzhaniye podozrevaemogo i obvinyaemogo kak vid gosudarstvennogo prinuzhdeniya* [Arrest of a suspect and accused as a form of state coercion]. [Unpublished doctoral dissertation]. Nizhniy Novgorod State University.
23. Popkov, N. V. (2007b). *Zaderzhanie podozrevaemogo i obvinyaemogo kak vid gosudarstvennogo prinuzhdeniya* [Detention of a suspect and accused as a form of state coercion]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Nizhniy Novgorod.
24. Putova, I. V. (2001). *Mezhdunarodnyy rozysk prestupnikov: pravovye, organizatsionnye, operativno-takticheskie aspekty* [International search for criminals: Legal, organizational, operational and tactical aspects]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Moscow.
25. Retyunskikh, I. A. (2016). *Ob osnovaniyakh zaderzhaniya litsa, podozrevaemogo v sovershenii prestupleniya* [On the grounds for detention of a person suspected of committing a crime]. *Bulletin of the Ural Law Institute of the Ministry of Internal Affairs*, 1, 18–21.
26. Sayfulov, R. A. (2001). *Ekstraditsiya v ugolovnom protsesse (po materialam MVD i Prokuratury Respubliki Uzbekistan)* [Extradition in criminal proceedings (based on materials from the Ministry

of Internal Affairs and the Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan)). [Abstract of Candidate Dissertation]. Tashkent.

27. Smushkin, A. B. (2005). *Zaderzhanie v strukture takticheskoy operatsii pri rassledovanii prestupleniy* [Detention as part of a tactical operation during a crime investigation]. [Abstract of Candidate Dissertation]. Saratov.

28. TASS. (2012, February 14). *Interpol razyskivaet 1700 rossiyan – nachalnik Natsbyuro Interpol MVD Aleksandr Prokopchuk* [Interpol searches for 70,000 people internationally]. TASS. <https://tass.ru/arhiv/559777>

29. Tsokolova, O. I. (2007). *Teoriya i praktika zaderzhaniya, aresta i sodержaniya pod strazhey v ugovnom protsesse* [Theory and practice of detention, arrest and detention in criminal proceedings]. [Abstract of Doctoral Dissertation]. Moscow.

30. Vasileva, E. G. (2006). *Ugolovno-protsessualnoe zaderzhaniye* [Criminal procedural detention] [Conference presentation]. Proceedings of the international scientific and practical conference dedicated to the 20th anniversary of the Department of Criminal Procedure of the Karelian Law Institute of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Kazakhstan named after B. Baseynov. Karaganda, Kazakhstan.

Kelib tushgan / Получено / Received: 09.10.2025
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 17.12.2025
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.12.2025

DOI: 10.51788/tsul.rols.2025.9.4./CWOT4031

UDC: 34:004.8(045)(575.1)

SUN'IY INTELEKTNING HUQUQIY MAQOMI MASALASIGA QIYOSIY YONDASHUV: YEVROPA ITTIFOQI VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI

Inoyatov Nodirbek Xayitboy o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Kiber huquq kafedrası o'qituvchisi
ORCID: 0009-0004-2958-203X
e-mail: Nodir_Inoyatov@tsul.uz

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada sun'iy intellektning huquqiy shaxs maqomi masalasi Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston qonunchiligi misolida qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda YIning "AI Act", "AI Liability Directive" va "General Data Protection Regulation" kabi asosiy hujjatlari tahlil qilinib, ularning SI tizimlarini xavf darajasiga ko'ra tartibga solish, inson huquqlarini himoya qilish va javobgarlikni aniqlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish" strategiyasi, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risida"gi nizom va yangi qonun loyihalari asosida SI sohasida yaratilayotgan maxsus huquqiy rejimlar tahlil qilingan. Natijalar YI modelining inson markazidagi xavfga asoslangan yondashuvga tayanishini, O'zbekiston modelining esa innovatsiyalar, iqtisodiy o'sish va texnologik mustaqillikka yo'naltirilganini ko'rsatdi. Maqola yakunida O'zbekiston uchun YI tajribasidan foydalanib, xavfga asoslangan tartibga solish, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillarini milliy qonunchilikka integratsiya qilish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, huquqiy shaxs maqomi, Yevropa Ittifoqi, O'zbekiston, Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun, javobgarlik, qiyosiy tahlil

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ПОДХОД К ВОПРОСУ ПРАВОВОГО СТАТУСА ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ОПЫТ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА И УЗБЕКИСТАНА

Иноятлов Нодирбек Хайитбой угли,
преподаватель кафедры «Киберправо»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной научной статье на основе сравнительно-правового анализа рассматривается вопрос правового статуса искусственного интеллекта на примере законодательства Европейского союза и Республики Узбекистан. В рамках исследования проанализированы ключевые документы Европейского союза, такие как AI Act, AI Liability Directive и General Data Protection Regulation (GDPR), раскрыта их роль в регулировании систем искусственного интеллекта по уровню риска, обеспечении защиты прав человека и определении юридической ответственности. Кроме того, на основе Стратегии «Цифровой

Узбекистан – 2030», Стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года, Положения о порядке создания специального режима для поддержки применения технологий искусственного интеллекта и организации его деятельности, а также новых законопроектов проанализированы формируемые в Республике Узбекистан специальные правовые режимы в сфере искусственного интеллекта. Полученные результаты свидетельствуют о том, что модель Европейского союза основана на человекоцентричном, риск-ориентированном подходе, тогда как модель Узбекистана ориентирована на стимулирование инноваций, экономический рост и достижение технологической самостоятельности. В заключение статьи обоснована необходимость использования опыта Европейского союза в Узбекистане, в частности интеграции в национальное законодательство принципов риск-ориентированного регулирования, прозрачности и ответственности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, правовой статус, Европейский союз, Узбекистан, законодательство об искусственном интеллекте, ответственность, сравнительный анализ

COMPARATIVE APPROACH TO THE LEGAL STATUS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: THE EXPERIENCE OF THE EUROPEAN UNION AND UZBEKISTAN

Inoyatov Nodirbek Khayitboy ugli,

Lecturer of the Department of Cyber Law,
Tashkent State University of Law

Abstract. In this scientific article, the issue of the status of artificial intelligence as a legal entity is studied on the basis of a comparative legal analysis using the example of the legislation of the European Union and Uzbekistan. The study analyzes key EU documents such as the “AI Act,” “AI Liability Directive,” and “General Data Protection Regulation (GDPR),” highlighting their role in regulating AI systems by risk level, protecting human rights, and determining accountability. Also, special legal regimes created in the field of AI based on the adopted strategy “Digital Uzbekistan-2030,” the strategy “Development of Artificial Intelligence Technologies until 2030,” the Regulation “On the Procedure for Establishing a Special Regime for Supporting Artificial Intelligence Technologies and Establishing its Activities,” and new draft laws in the Republic of Uzbekistan were analyzed. The results indicated that the EU model relies on a human-centered, risk-based approach, while the Uzbek model is focused on innovation, economic growth, and technological independence. At the end of the article, the need for Uzbekistan to integrate the principles of risk-based regulation, transparency, and accountability into national legislation, using EU experience, is substantiated.

Keywords: artificial intelligence, legal entity status, European Union, Uzbekistan, AI Act, liability, comparative analysis

Kirish

So‘nggi o‘n yilliklarda sun‘iy intellekt (SI) texnologiyalari dunyo miqyosida huquqshunoslar, siyosatchilar va texnologlar o‘rtasida eng muhim bahs-munozaralarga sabab bo‘layotgan masalalardan biriga aylandi (Kurki, 2019; Gunkel, 2018; Burylo, 2022). Sining o‘z-o‘zidan o‘rganish, mustaqil qaror qabul qilish va inson faoliyatiga yaqin natijalar yaratish

qobiliyati uni nafaqat texnik yangilik, balki huquqiy tartibga solish nuqtayi nazaridan ham tubdan yangi fenomen sifatida ko‘rsatmoqda. Shu sababli “Sun‘iy intellekt huquqiy shaxs bo‘lishi mumkinmi?” degan savol xalqaro huquqiy hamjamiyatda, xususan, Yevropa Ittifoqi (YI) va rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, O‘zbekiston qonunchiligi va huquqiy siyosatida markaziy o‘rin egallab bormoqda.

YI 2021-yildan buyon muhokama qilina-yotgan Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun (AI Act) orqali SI tizimlarini xavflilik darajasi asosida tasniflash va tartibga solishga intilmoqda (European Commission, 2021). Ushbu huquqiy yondashuv texnologiyalarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bilan birga inson huquqlari, xavfsizlik va demokratiyaga tahdidlarni minimallashtirishni maqsad qilgan. Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonunda huquqiy shaxsiyat masalasi to'g'ridan to'g'ri ko'tarilmagan bo'lsa-da, u SI tizimlari bilan bog'liq javobgarlik, shaffoflik va nazorat mexanizmlarini belgilab, bilvosita ularning huquqiy maqomi masalasiga aloqadorlik qiladi (Wirtz et al., 2018). Shuningdek, YI tomonidan ishlab chiqilgan AI Liability Directive va General Data Protection Regulation (GDPR) SI texnologiyalaridan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, javobgarlikni taqsimlash va huquqiy aniqlikni ta'minlash bo'yicha muhim me'yoriy asoslarni yaratdi (Zerilli et al., 2019).

O'zbekiston Respublikasida esa so'nggi yillarda SIni huquqiy tartibga solishga doir muhim qadamlar tashlandi. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-noyabrdagi 717-son qarori bilan sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus huquqiy rejim joriy qilindi. Bu qaror IT-park rezidentlari uchun "regulatory sandbox"ga o'xshash mexanizm yaratib, SI asosida faoliyat yurituvchi yuridik shaxslar va ilmiy tashkilotlarga yangiliklar, imtiyozlar hamda tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish imkoniyatini berdi. Mazkur tartib O'zbekistonning SI bozorini jadal rivojlantirishga xizmat qilishi bilan birga, SI texnologiyalarini huquqiy maydonda alohida subyekt sifatida tan olishga yo'naltirilgan dastlabki bosqich sifatida ham ko'rilishi mumkin.

Bundan tashqari, 2024-yil dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan taqdim etilgan "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini" mamlakatni mintaqaviy AT

xabiga aylantirish, kadrlar salohiyatini oshirish, texnik infratuzilmani kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishni ko'zda tutdi. Strategiyada SI asosida 100 ta loyiha ishga tushirish, telekommunikatsiya infratuzilmasini kengaytirish hamda "Enterprise Uzbekistan" kabi xalqaro standartlarga asoslangan texnologik markazni yo'lga qo'yish kabi vazifalar belgilandi. Shu bilan birga, 2025-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi-da "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga" doir qonun loyihasi birinchi o'qishda qabul qilindi (Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, 2025). Mazkur qonun loyihasida SI tushunchasiga ta'rif berilishi, davlat siyosatining yo'nalishlari, maxsus vakolatli organning vazifalari, SI orqali yaratilgan mahsulotlarni markirovkalash tartibi va shaxsiy ma'lumotlarni noqonuniy qayta ishlash uchun ma'muriy javobgarlik kabi normalar ko'zda tutilmoqda.

YI va O'zbekiston tajribasini solishtirish shuni ko'rsatadiki, ikki yondashuv bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. YI modelida xavflarni kamaytirish, shaffoflik va javobgarlikka urg'u berilsa, O'zbekiston modelida SI texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash, maxsus rejimlar orqali huquqiy maydon yaratish va infratuzilmani rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Shu jihatdan O'zbekiston qonunchiligida hozircha SIga huquqiy shaxs maqomi berish bevosita ko'zda tutilmagan bo'lsa-da, mavjud normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, maxsus rejim va strategik hujjatlar, SIni huquqiy subyekt sifatida shakllantirish jarayonida muhim huquqiy tajriba rolini o'ynaydi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, SIning huquqiy shaxsiyati masalasi faqat amaliy huquqiy tartibga solish bilan cheklanmaydi, balki falsafiy, axloqiy va nazariy-huquqiy yondashuvlarni ham talab qiladi J. Bryson (Bryson et al., 2017), Pagallo (Pagallo, 2017), V. Kurki (Kurki, 2023) kabi ko'plab xorijiy olimlar SIning huquqiy subyekt sifatida tan olish mumkinli-

gi, uning inson huquqlariga ta'siri va huquqiy javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati haqida turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston tajribasini YI huquqiy modeli bilan qiyoslash nafaqat amaldagi huquqiy bazani solishtirish, balki kelajakda Sining huquqiy shaxs maqomini belgilashda qanday yondashuv samaraliroq bo'lishini baholash imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi O'zbekiston va Yevropa Ittifoqining sun'iy intellektga oid huquqiy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish, xususan, huquqiy shaxsiyat masalasi doirasida o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash hamda O'zbekiston uchun YI tajribasidan qanday huquqiy imkoniyatlar va darslar olinishi mumkinligini ko'rsatib berishdir. Tadqiqot quyidagi asosiy savollarga javob berishga intiladi: birinchidan, "Yevropa Ittifoqida sun'iy intellekt huquqiy shaxsiyati qanday nazariy va amaliy jihatdan muhokama qilinmoqda?"; ikkinchidan, "O'zbekiston qonunchiligida SI texnologiyalariga oid qanday normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va ular huquqiy shaxsiyat masalasini qanday hal etmoqda?"; uchinchidan, "Qiyosiy tahlil asosida O'zbekiston qanday qilib YI tajribasidan foydalanib, SI huquqiy maqomini belgilashda yanada samarali huquqiy mexanizmlar ishlab chiqishi mumkin?"

Metodlar

Ushbu tadqiqot qiyosiy-huquqiy tahlil metodologiyasiga asoslanadi. Maqolaning asosiy maqsadi – Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt (SI) huquqiy shaxsiyati masalasida shakllanayotgan yondashuvlarni o'rganish va ularning o'xshash hamda farqli jihatlarini aniqlashdir. Shu sababli tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, siyosiy hujjatlar va ilmiy manbalar birgalikda tahlil qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, qiyosiy-huquqiy metod tanlovi tadqiqotning maqsadi va tadqiqot savollaridan kelib chiqadi. Sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasi milliy huquq doirasida yakka tartibda

hal etiladigan masala emas, u turli huquqiy tizimlarda shakllanayotgan yondashuvlar o'rtasidagi konseptual farqlarni aniqlashni talab qiladi. Aynan qiyosiy yondashuv orqali Yevropa Ittifoqida shakllangan xavfga asoslangan tartibga solish modeli hamda O'zbekistonning innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan normativ modeli o'rtasidagi farqlar, ularning afzalliklari va cheklovlari tizimli ravishda aniqlanadi. Mazkur metod tadqiqot savollariga javob berish, xususan, sun'iy intellektni tartibga solishda inson huquqlarini, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va texnologik rivojlanishni rag'batlantirish o'rtasidagi muvozanatni baholash imkonini beradi.

Birinchidan, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili qo'llandi. Yevropa Ittifoqi bo'yicha "AI Act" (European Parliament and the Council of the European Union, 2024), "AI Liability Directive" (European Commission, 2022) va "General Data Protection Regulation (GDPR)" (European Parliament and the Council of the European Union, 2016) asosiy manbalar sifatida tanlandi. O'zbekiston bo'yicha esa Oliy Majlisda birinchi o'qishda qabul qilingan "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keldigan munosabatlarni tartibga solishga oid qonun loyihasi", Prezident qaror va farmonlari, xususan, "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 717-son nizomi asosiy huquqiy hujjatlar sifatida o'rganildi. Ushbu hujjatlar nafaqat amaldagi normativ maydonni yoritadi, balki SI texnologiyalarini huquqiy tartibga solishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beradi.

Ikkinchidan, qiyosiy huquqiy yondashuvdan foydalanildi. Bu yondashuv orqali YI va O'zbekiston tajribalari o'rtasidagi asosiy farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi. Masalan, YI modelida SI tizimlari xavf asosida tartibga solinadi va huquqiy javobgarlik mexanizmlari ishlab chiqiladi. O'zbekistonda esa asosiy urg'u innovatsiyalarni rag'batlantirish, maxsus

huquqiy rejimlar va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Qiyosiy tahlil metodikasi yordamida ushbu ikki yondashuvning kuchli va zaif tomonlari tahlil qilinib, O'zbekiston uchun potensial huquqiy masalalar aniqlanadi.

Uchinchidan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodidan foydalanildi. Tadqiqotda Scopus va Web of Science bazalarida chop etilgan 40 ga yaqin xorijiy olimlarning ishlari (*Pagallo (2017); Pagallo (2013), Kurki (2023); Kurki, & Pietrzykowski, (2017), Bryson, Diamantis & Grant, (2017), Burylo (2022), Negri, (2021), Igbokwe (2024), Jaysen (2019), Marshall (2023), Zeng, Lu & Huangfu, (2018), Leenes et al., (2017), Vladeck (2014)* va boshqalar) o'rganildi. Ushbu ilmiy manbalar SI huquqiy shaxsiyati masalasida turli nazariy konsepsiyalarni – funksional, metaforik va huquqiy realizm yondashuvlarini – tahlil qilish imkonini berdi.

Nihoyat tadqiqot sintez va tavsiya chiqarish bosqichi bilan yakunlandi. YI va O'zbekiston tajribalaridan kelib chiqib, maqolada O'zbekiston uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Bu metodologik yondashuv nafaqat mavjud qonunchilikni solishtirish, balki istiqboldagi huquqiy siyosat uchun yo'l xaritasini shakllantirish imkonini beradi.

Natijalar

Yevropa Ittifoqi so'nggi yillarda sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda global yetakchilikni qo'lga kiritgan hudud sifatida ko'rilmogda. 2024-yilda qabul qilingan Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun bu borada eng keng qamrovli yondashuv bo'lib, u texnologiyani inson huquqlari va xavfsizlik tamoyillari asosida nazorat qilishni ko'zda tutadi (*European Parliament and the Council of the European Union, 2024*). Ushbu huquqiy hujjat SI tizimlarini xavf darajasiga ko'ra tasniflaydi va mas'uliyatni insonlar yoki yuridik shaxslar zimmasida qoldiradi. Demak, Yevropa modeli sun'iy intellektni mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olishdan ongli ravishda voz kechib, aksincha, javobgarlikni mavjud fuqarolik

va korporativ institutlarga yuklaydi (*Kurki, 2019; Hacker, 2020*).

Avvalroq parlament darajasida "elektron shaxslar" tushunchasi muhokama qilingan bo'lsa-da, bu g'oya akademik doiralar va fuqarolik jamiyatining keskin tanqidiga uchradi (*Bryson et al., 2017*). Shu sababli Yevropa siyosati "inson markazidagi SI" tamoyiliga asoslanib, oshkoralik, izohlanish imkoniyati va inson nazorati kabi prinsiplarni ustuvor yo'nalish sifatida ilgari surmogda. Bunday yondashuv nafaqat Yevropa ichida, balki YUNESKO, IHTT va boshqa xalqaro maydonlarda ham muhim mezon sifatida qabul qilingmogda (*Pagallo, 2017*). Biroq ayrim olimlar Yevropa yondashuvi chegaralanganini, xususan, SI tizimlarining transchegaraviy oqibatlari va iqtisodiy faoliyatda mustaqil subyekt sifatida maydonga chiqishi masalalari hali ham to'liq yechimini topmaganini ta'kidlaydi (*Černý, 2020*).

O'zbekiston esa bu sohada o'zining milliy strategiyasini shakllantirish yo'lida faol qadamlar tashladi. 2021-yilda Prezidentning PQ-5234-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 717-son qarori qabul qilinib, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus huquqiy rejim yaratildi. Ushbu rejim IT-park doirasida eksperimental loyihalarni amalga oshirishga ruxsat beradi, soliq imtiyozlari va yengillashtirilgan tartibtaomillarni joriy etadi. Ya'ni O'zbekiston yondashuvi avvalo iqtisodiy innovatsiyalarni rag'batlantirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, bu huquqiy asos sun'iy intellektni huquqiy shaxs sifatida ko'rmaydi, balki uni davlat siyosati va nazorat obyekti sifatida tartibga soladi (*Inoyatov, 2025a*).

Shu bilan birga, ta'kidlash lozimki, Yevropa Ittifoqining Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonuni nisbatan yaqinda qabul qilingani sababli uning to'liq amaliy samaradorligini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar hozircha cheklangan. O'zbekistonda ham SI bo'yicha maxsus huquqiy rejimlar doirasida erishilgan

natijalar bo'yicha ochiq empirik ko'rsatkichlar yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli mazkur tadqiqotda yondashuvlarning amaliy ta'siri normativ indikatorlar (javobgarlik mexanizmlari, risk tasnifi, inson nazorati talablari) orqali baholandi.

So'nggi yillarda parlament darajasida ham yangi tashabbuslar ilgari surildi. 2024-yilda Oliy Majlisda birinchi o'qishda qabul qilingan qonun loyihasi SI yordamida yaratilgan axborotlarni markirovkalash, shaxsga doir ma'lumotlarni noqonuniy qayta ishlashga qarshi javobgarlik choralarini belgilashni nazarda tutdi. Bu orqali sun'iy intellektning axborot maydonida keltirishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni kamaytirish, inson huquqlarini himoya qilish asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha bo'lgan raqamli strategiyada esa sun'iy intellekt texnologiyalarini mamlakat taraqqiyotining muhim bo'g'ini sifatida rivojlantirish, maxsus ilmiy laboratoriyalar ochish, davlat boshqaruvini raqamlashtirish va xalqaro reytinglarda yuqori pog'onalarni egallash maqsadlari belgilangan.

Xalqaro tashkilotlarning yondashuvlari bu jarayonlarni yanada to'ldiradi. IHTT tomonidan 2019-yilda ishlab chiqilgan prinsiplar SI'da oshkoralik, mustahkamlik va inson huquqlariga rioya qilishni talab qiladi (OECD, 2019). YUNESKOning 2021-yildagi "Sun'iy intellekt etikasiga oid tavsiyasi" esa ko'plab davlatlar tomonidan qabul qilinib, adolat, inklyuzivlik va diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyillarini ilgari surdi (UNESCO, 2021). BMTning 2023-yilda taqdim etgan Global Digital Compact hujjati ham SI texnologiyalarini inson farovonligi va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qildirish zarurligini alohida qayd etdi (United Nations, 2021). Ushbu hujjatlar sun'iy intellektni mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olishni rad etib, uning us-tidan inson nazorati va mas'uliyatini saqlab qolishni asosiy tamoyil qilib belgilaydi.

Taqqoslash shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston yondashuvlari bir-bi-

ridan sezilarli darajada farq qiladi. Yevropa huquqiy tizimi inson huquqlari va xavfga asoslangan tartibga solishni birlamchi deb bilsa, O'zbekiston modeli iqtisodiy innovatsiyalarni rivojlantirish va texnologik markazga aylanishga urg'u beradi. Yevropada sun'iy intellektga huquqiy shaxs maqomini berish g'oyasi siyosiy muhokama darajasida rad etilgan bo'lsa, O'zbekistonda bu masala huquqiy diskursga hali kiritilmagan. Javobgarlik nuqtayi nazaridan Yevropa tizimi aniq fuqarolik-huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqqan bo'lsa, O'zbekistonda bunday mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan va ko'proq tajriba rejimlariga tayanmoqda. Shu bilan birga, ikki tizim ham YUNESKO va IHTT kabi xalqaro standartlarga sodiq qolmoqda, farqi shundaki, Yevropa global me'yorlarni shakllantiruvchi subyekt bo'lsa, O'zbekiston ularni milliy strategiyaga moslashtiruvchi davlat sifatida ishtirok etmoqda.

Mazkur qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida bir nechta muhim ilmiy xulosalar aniqlandi. Birinchidan, Yevropa Ittifoqi sun'iy intellekt-ni tartibga solishda xavfga asoslangan va inson huquqlarini ustuvor qo'yuvchi normativ modelni shakllantirgan bo'lsa, O'zbekiston yondashuvi iqtisodiy innovatsiyalarni jadal-lashtirishga yo'naltirilgan moslashuvchan huquqiy rejimga tayanadi. Ikkinchidan, har ikkala tizim sun'iy intellektni mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olishdan voz kechib, javobgarlikni insonlar va yuridik shaxslar zimmasida qoldiradi (Stepanov, 2021). Uchinchidan, Yevropa modeli huquqiy aniqlik va oldini olish mexanizmlariga tayanar ekan, O'zbekiston modeli eksperimental tartibga solish orqali huquqiy bo'shliqlarni bosqich-ma-bosqich to'ldirishga intilmoqda.

Natijada O'zbekiston Yevropa tajribasi-dan foydalanib, riskka asoslangan tasniflash tizimini huquqiy normalarga kiritishi, javobgarlik bo'yicha aniq mexanizmlarni yaratishi va mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkin. Shu bilan birga, YUNESKO va BMTning umumiy tamoyillariga asoslangan

yondashuv mamlakatda iqtisodiy taraqqiyot bilan bir qatorda axloqiy va huquqiy muvozanatni ham ta'minlash imkonini beradi. Ushbu natijalar keyingi bo'limda ularning huquqiy va konseptual oqibatlari nuqtayi nazaridan muhokama qilinadi.

Muhokama

Sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasi so'nggi yillarda jahon huquqshunoslik ilm-fanida eng dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Bu jarayonning zahirida ikki asosiy omil yotadi, birinchidan, SI tizimlarining mustaqil qaror qabul qilish, o'z-o'zidan o'rganish va murakkab ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyati sezilarli darajada oshdi. Ikkinchidan, mavjud huquqiy institutlar bu kabi texnologiyalarni tartibga solishda ko'plab bo'shliqlarni yuzaga chiqarmoqda (Stepanov, 2021; Kurki & Pietrzykowski, 2017). Aynan shuning uchun ham Yevropa Ittifoqi va O'zbekistonning huquqiy yondashuvlarini solishtirish orqali nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim xulosalar chiqarish mumkin.

Yevropa Ittifoqida olib borilayotgan siyosat SIn mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olishdan ko'ra uni xavfga asoslangan tartibga solish orqali boshqarishga qaratilgan. 2024-yilda qabul qilingan Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun huquqiy tizimda muhim burilish yasab, SI tizimlarini past, o'rta va yuqori xavf toifalariga ajratib tartibga solishni yo'lga qo'ydi (European Parliament and the Council of the European Union, 2024). Bunda asosiy maqsad inson huquqlarini himoya qilish, xavfsizlikni ta'minlash va texnologiya ustidan nazoratni insonlar qo'lida saqlashdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Yevropa modeli huquqiy shaxs maqomini rad etgan holda SIn mavjud institutlar doirasida nazorat qilishni eng maqbul yo'l sifatida ko'rmoqda (Bryson et al., 2017).

Shu bilan birga, Yevropadagi muhokamalar jarayonida "elektron shaxs" konsepsiyasi ilgari surilganini ham e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi (European Parliament, 2017). Bu

konsepsiya ayrim hollarda, xususan, avtonom robotlarning iqtisodiy munosabatlarda qatnashishi zarurati paydo bo'lganida, javobgarlikni to'g'ridan to'g'ri texnologiya zimmasiga yuklash imkonini berishi mumkin edi (Inoyatov, 2025c). Ammo bunday yondashuvning asosiy xavfi inson mas'uliyatini kamaytirishi, huquqiy tizimda javobgarlik bo'shlig'i paydo qilishi va jamiyatda "insoniylik" tamoyillarini zaiflashtirish bilan bog'liq bo'lgani uchun Yevropa siyosiy doiralari tomonidan rad etildi (Hacker, 2020).

Shu ma'noda "elektron shaxs" konsepsiyasi fuqarolik huquqida huquq subyekti tushunchasining asosiy elementlari – ongli iroda, huquq layoqati va majburiyatlarni ijro etish imkoniyati bilan mos kelmaydi. Natijada bunday yondashuv javobgarlikni real nazorat qiluvchi insonlardan texnologiyaga ko'chirish xavfini tug'dirib, huquqiy va axloqiy mas'uliyatning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Buning o'zi Yevropa Ittifoqi huquqshunosligi SIn ijtimoiy va iqtisodiy hayotga qo'shishda ehtiyotkorlik tamoyiliga sodiq ekanini ko'rsatadi.

O'zbekistondagi vaziyat esa biroz boshqacharoq. Mamlakat 2021-yildan boshlab sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishga oid mustaqil huquqiy infratuzilma yaratishga kirishdi. Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko'ra, maxsus huquqiy rejim shakllantirildi, IT-park rezidentlari uchun yengilliklar belgilandi, tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish uchun qulay muhit yaratildi. Bu yondashuv iqtisodiy innovatsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, sun'iy intellektni huquqiy shaxs sifatida tan olish masalasi hozircha umuman kun tartibiga qo'yilmagan. Shu sababli O'zbekiston tajribasida SI ko'proq davlat tomonidan tartibga solindigan va biznesni rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiya sifatida talqin qilinmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning hujjatlari ham ushbu ikki yondashuvni o'zaro bog'lab turuvchi umumiy tamoyillarni belgilab bergan. Masalan, YUNESKOning 2021-yildagi "Sun'iy

intellekt etikasi to'g'risida tavsiyasi" adolat, inson huquqlarini ustuvor qo'yish, diskriminatsiyaning oldini olish va texnologiyaning inklyuzivligini ta'minlash kabi prinsiplarni ilgari surdi (UNESCO, 2021). IHTT tomonidan 2019-yilda qabul qilingan prinsiplarda esa SI tizimlarida oshkoralik, mas'uliyat va xavfsizlik tamoyillariga e'tibor qaratildi. BMTning 2023-yildagi Global Digital Compact hujjati esa SI texnologiyalarini barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qildirish zarurligini ta'kidladi. Bu hujjatlar ko'rsatadiki, xalqaro hamjamiyatning umumiy qarashida SIga huquqiy shaxs maqomini berish emas, balki uni insoniyat manfaati yo'lida nazorat qilish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda (Pagallo, 2017; Černý, 2020).

Tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi va O'zbekistonning yondashuvlari farqli bo'lishiga qaramay, ular bir nuqtada tutashadi: ikkala tizim ham javobgarlikni insonga bog'lab qo'yadi. Yevropa Ittifoqida bu xavfga asoslangan qat'iy huquqiy me'yorlar orqali amalga oshirilsa, O'zbekistonda tajriba-sinov rejimlari orqali iqtisodiy rag'batlantirish usuli qo'llanmoqda. Lekin O'zbekiston tajribasida inson huquqlari bilan bog'liq mexanizmlar hali kuchli darajada shakllanmagan, bu esa xalqaro standartlarga moslashishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Buning asosiy sabablari sifatida sun'iy intellekt tizimlari bo'yicha maxsus risk baholash mexanizmlarining mavjud emasligi, algoritmik qarorlar ustidan mustaqil institutsional nazorat tizimining shakllanmagani hamda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha protsessual kafolatlarining cheklanganini ko'rsatish mumkin. Ushbu holatning oqibati sifatida diskriminatsiya, noqonuniy profil qilish va shaffoflik yetishmasligi kabi xavflar kuchayishi ehtimoli saqlanib qolmoqda.

Yevropa tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, inson markazidagi yondashuv demokratik qadriyatlarni saqlash, jamiyatda ishonchni oshirish va transchegaraviy muammolarni hal etishda samarali bo'lishi

mumkin. Shu bilan birga, u texnologik innovatsiyalarni haddan tashqari cheklab qo'yishi xavfini ham o'zida mujassam etadi. O'zbekistonning tajribasi esa iqtisodiy va innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan bo'lib, qisqa muddatda natija berishi mumkin, ammo uzoq muddatli istiqbolda inson huquqlari va etik me'yorlar bo'yicha global talablarni qondirish uchun kuchliroq huquqiy mexanizmlar talab etiladi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarning qarorlari O'zbekiston uchun muhim yo'nalishlarni belgilab beradi. Masalan, YUNESKOning etik tamoyillarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish orqali davlat sun'iy intellekt sohasida xalqaro ishonchga ega bo'lishi mumkin. Yevropa Ittifoqi tajribasi esa xavfga asoslangan tartibga solish tizimini milliy sharoitlarga moslashtirishda muhim metodologik model bo'lib xizmat qiladi. Shu yo'l bilan O'zbekiston nafaqat iqtisodiy innovatsiyalarni rivojlantiradi, balki inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarga moslashgan tizimni ham shakllantiradi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, SIga huquqiy shaxs maqomini berish hozircha na Yevropa, na O'zbekiston uchun dolzarb. Aksincha, masalaning mohiyati sun'iy intellektni insoniyat manfaatiga xizmat qildirish, uni nazorat qilish va mas'uliyatni insonga bog'lab qo'yishda mujassam. Shu bilan birga, kelajakda SI tizimlarining rivojlanish sur'ati va ularning iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlardagi o'rni yanada kengayishi natijasida huquqiy shaxs maqomi masalasi qayta ko'rib chiqilishi mumkin (Gulyamov, 2023). Bunday sharoitda O'zbekiston Yevropa tajribasidan o'rnak olib, xavfga asoslangan tasniflash, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillarini milliy huquqiy tizimga singdirishi zarur bo'ladi.

Shu tarzda muhokama Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston yondashuvlarining o'ziga xos ustunlik va kamchiliklarini ko'rsatdi hamda xalqaro tashkilotlar belgilab bergan umumiy tamoyillarni milliy kontekstga tatbiq etish

zarurligini isbotladi. Bu jarayon nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va etik muvozanatni ta'minlash uchun ham muhim hisoblanadi.

Xulosa

Sun'iy intellektning huquqiy maqomi masalasi bo'yicha olib borilgan qiyosiy-huquqiy tahlil shuni ko'rsatadiki, Yevropa Ittifoqi va O'zbekiston yondashuvlari o'rtasida farqlar mavjud bo'lsa-da, har ikkala tizim sun'iy intellektni mustaqil huquqiy shaxs sifatida tan olishdan voz kechib, javobgarlikni inson va yuridik shaxslar zimmasida qoldirish tamoyiliga asoslanadi. Yevropa Ittifoqida bu xavfga asoslangan tartibga solish modeli orqali huquqiy aniqlik va inson huquqlarini himoya qilish bilan ta'minlanmoqda, O'zbekistonda esa sun'iy intellekt iqtisodiy innovatsiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologiya sifatida ko'rilmogda.

Tadqiqot natijalari sun'iy intellektga huquqiy shaxs maqomi berish hozirgi bosqichda na Yevropa, na O'zbekiston sharoitida

maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatdi. Bunday yondashuv huquqiy javobgarlikning noaniqlashuviga, inson mas'uliyatining susayishiga va ijtimoiy adolat tamoyillarining zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli qisqa va o'rta muddatli istiqbolda asosiy e'tibor sun'iy intellektni xavfsiz, shaffof va inson huquqlariga mos holda tartibga solishga qaratilishi zarur.

Mazkur xulosalar asosida O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqining xavfga asoslangan yondashuvi hamda YUNESKO, IHTT va BMT tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tamoyillar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ushbu tamoyillarni milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilish orqali O'zbekiston bir vaqtning o'zida innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydigan va inson huquqlarini ishonchli himoya qiladigan barqaror huquqiy tizimni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

REFERENCES

1. Bryson, J. J., Diamantis, M. E., & Grant, T. D. (2017). Of, for, and by the people: the legal lacuna of synthetic persons. *Artificial Intelligence and Law*, 25(3), 273–291. <https://doi.org/10.1007/s10506-017-9214-9>
2. Burylo, Y. (2022). Legal personhood of artificial intelligence systems: To be or not to be? *Entrepreneurship Economy and Law*, 2, 18–25. <https://doi.org/10.32849/2663-5313/2022.2.02>
3. Černý, M. (2020). Luciano Floridi: The logic of information: A theory of philosophy as conceptual design Oxford. *Philosophy*, 75(3), 256–260. <https://doi.org/10.31577/filozofia.2020.75.3.8>
4. European Commission. (2021). *Proposal for a regulation laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act)*. COM/2021/206 final. <https://eur-lex.europa.eu>
5. European Commission. (2022). *Proposal for a Directive of the European Parliament and of the Council on adapting non-contractual civil liability rules to artificial intelligence (AI Liability Directive)*. COM/2022/496 final. Brussels: European Commission.
6. European Parliament and the Council of the European Union. (2016). Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council of 27 April 2016 on the protection of natural persons with regard to the processing of personal data and on the free movement of such data (General Data Protection Regulation). *Official Journal of the European Union*, L 119, 1–88. <https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2016/679/oj>
7. European Parliament and the Council of the European Union. (2024). Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised

rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act) and amending certain Union legislative acts. *Official Journal of the European Union*, L 168, 1–157.

8. European Parliament. (2017). European Parliament resolution of 16 February 2017 with recommendations to the Commission on civil law rules on robotics (2015/2103(INL)). *Official Journal of the European Union*, C 252/239.

9. Gless, S., Silverman, E., & Weigend, T. (2016). If robots cause harm, who is to blame? Self-driving cars and criminal liability. *New Criminal Law Review*, 19(3), 412–436. <https://doi.org/10.1525/nclr.2016.19.3.412>

10. Gulyamov, S. S. (2023). Legal frameworks for the integration of artificial intelligence. In *IFMBE Proceedings* (pp. 144–149). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-031-42782-4_16

11. Gunkel, D. J. (2018). *Robot Rights*. The MIT Press. <https://doi.org/10.7551/mitpress/11444.001.0001>

12. Hacker, P. (2020). AI regulation in Europe. *SSRN Electronic Journal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.3556532>

13. Hallevy, G. (2010). *The criminal liability of artificial intelligence entities*. SSRN. <https://doi.org/10.2139/ssrn.1564096>

